

Farsaxonova Dilafuz Rizaxonovna

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI
FANINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI**

**TOSHKENT – 2021
«FAN ZIYOSI» NASHRIYOTI**

UO'K:

KBK:

Farsaxonova D.R.

**“Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitish texnologiyasi”,
uslubiy qo‘llanma. – T.: «Fan ziyosi» nashr 2022. 136 b.**

Ushbu uslubiy qo‘llanma pedagog hamda talabalarga tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitishda eng muhim manba bo‘lib, unda fanni o‘qitish usul va uslublari, mavjud nazariyalarning amaliyotda qo‘llanilishi va kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish, ta‘lim-tarbiya jarayonlarini loyihalashtirish, texnologiyalashtirish ko‘nikma-malakalarini hosil qilish haqida so‘z yuritilgan.

Uslubiy qo‘llanma oliy o‘quv yurti o‘qituvchilari, talabalari va erkin kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Muallif tomonidan “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan elektron o‘quv qo‘llanma ham tayyorlangan bo‘lib, uni <http://tarbiyaviy.uz/> saytiga joylashtirilgan.

Ushbu uslubiy qo‘llanma Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘quv-uslubiy Kengashining 2022 yil 26 sentyabrdagi yig‘ilishida muhokama qilindi va uning №2-raqamli bayonnomasi bilan ma‘qullangan

Tuzuvchi: FARSAXONOVA D.R. – Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi
kafedrası katta o‘qituvchisi, p.f.f.d., PhD

Taqrizchilar: XOLBOYEVA G.A. – Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi
kafedrası mudiri, dotsent.

TILAKOVA M. – Jizzax viloyati XTXQTMOHM dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

ISBN 978-99

© Farsaxonova D.R.
© «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022

K I R I SH

Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berishiga keng imkoniyatlar ochildi. Respublika rahbariyati boshchiligida mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, zamon talabiga va jahon standartlariga javob beradigan yetuk kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim sohasida ham islohotlar olib borilmoqda. Shu asnoda, mustaqillik sharoitida mamlakatimizda buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish maqsadida, yetuk kadrlar tayyorlash ishini jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q"¹, – deya ta'kidlagan edi.

Mustaqillikning dastlabgi kunlaridan boshlab barkamol avlodni shakllantirish maqsadida ta'lim sohasida tub islohotlarning o'tkazilishi davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Ularning asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2017-yil 23-dekabr.

PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmonida belgilab berilgan vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2017-yil 20-apreldagi va “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2018-yil 5-iyundagi Qarorlari tashkil etadi.

Ushbu dasturiy hujjatlarda ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lida ta’lim tizimida yangi avlod darsliklarini yaratish vazifasi ilgari surildi.

Davr va yuqoridagi me’yoriy davlat hujjatlarining talablaridan kelib chiqqan holda mualliflar tomonidan ushbu darslik yaratildi.


Uslubiy qo‘llanmada talabalar “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani doirasida fan asoslari, fanni o‘qitishning usul va uslublari, mavjud nazariyalarning amaliyotda qo‘llanilishi va kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanishni o‘rganadi, ta’lim-tarbiya jarayonlarini loyihalashtirish, texnologiyalashtirish ko‘nikma-malakalarini puxta o‘zlashtiradi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash metodikasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu holat ularning kasbiy kamolotga erishishlari uchun mustahkam zamin hozirlaydi.


NAZARIY MATERIALLAR

MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

1. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan metodlar
3. Tarbiyaviy ishlar jarayonining ijtimoiy ahamiyati
4. Tarbiyaviy ishlar metodikasining xususiyatlari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi

 **Mavzuning maqsadi:** tarbiyaviy ishlarmetodikasi fanining maqsad va vazifalari, mazmun mohiyati, tarbiyaviy ishlar jarayonining ijtimoiy ahamiyati, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda boshqa fanlar bilan bog'liqligini ko'rsatib berish.

 **Tayanch tushunchalar:** tarbiya, tarbiya tushunchasi, tarbiyaning mazmun-mohiyati, tarbiya funksiyasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi, tarbiya metodlari, tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati, tarbiyaviy munosabat.

1. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir.

Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, uning yetakchi g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o'z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir.

Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi

Insonning boy ma'naviy – tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak qilib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etishga ko'p jihatdan bog'liq.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog'liq. Ular quyidagi omillarni qo'llash asosida vujudga keladi:

- tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqyealari jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir;
- tarbiyaviy ishlarning maqsadi, aniqligi va ta'sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;
- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqat va munosabatda bo'lishlari, ruhiy shart – sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir.
- O'quvchi – yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o'quvchi yoshlarning faolligi ko'p jihatdan ixtiyoriylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog'liq;

- Tarbiyaviy ishlar ta'lim jarayonida olgan bilimlariga uyg'un bo'lishi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integratsiyasi hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi yosh avlodni har tamonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g'oyani singdirishda har tamonlama ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqoroning ilm olishi, o'z qobiliyatlarini har tamonlama rivojlantirish ta'kidlanadi. Ta'lim to'g'risida qabul qilingan qonunda maktabning, unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaning mazmuni amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaning vazifalari belgilab berildi.

Ma'lumki, yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. O'qish va tarbiya jarayonining uzviyligi ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun sinfdan, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir.

Har bir fanning predmeti, o'rganish obyekti, amalga oshirishi lozim vazifalari mavjud bo'lganidek, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining ham predmeti, o'rganish obyekti va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalari bor. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti sinfda va maktabda, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish, har tamonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashning eng zamonaviy va eng qulay yo'nalishlarini belgilash, vositalarini izlab topishdan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining **predmeti** bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachilarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash sanatining qirralari, shakl va yo'llari hamda bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining o'rganish **obyektini** esa ta'lim muassalaridagi uzluksiz ta'lim –tarbiya jarayoni tashkil etadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsadi bo'lajak o'qituvchi va tarbiyachilarning tarbiyaviy ish va tadbirlarning mazmunli bo'lishini ta'minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyat va urf-odatlardan keng

foydalanishga, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni ajrata bilishga qaratilgandir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning asosiy maqsadi, milliy istiqlol talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, ayni paytda bu o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham o'qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh masalalaridan biri ham yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdan iborat etib belgilangan. Shu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiyaviy ishlar tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyaviy ishlar shaxs kamolatining uzluksizligini va uzviyligini muvaffaqiyatli ta'minlaydi. Shu jihatdan har tarbiyaviy ishlar tizimi shaxs kamolotining eng muhim va zaruriy omillaridan biri hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlar sog'lom hayot, sog'lom turmush tarzi, sog'lom e'tiqod, barkamollik kabilarning asosiga aylanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar tarbiyaviy ishlarda asosiy o'rin egallaydi. Shu sababli bugunga yoshlar dunyoqarashida millat, Ona tuproq, Ona Vatan kabilar turli xil tarbiyaviy tadbirlar, boy ma'naviy merosimiz haqidagi tushunchalar bilan tarkib topib boradi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ongida, millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy g'oya, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalarni sindirib borish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirib borish tarbiya jarayoning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dordga, ilmga va mashqqa degan edi, ulug' olim Arastu. Shunga asosan tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- ✓ tarbiyaviy ishlar jarayonida va tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb bilish, har bimir bola, o'smir va yoshlarning o'ziga xosligini hurmat qilish;
- ✓ milliylikning o'ziga xos an'ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish;
- ✓ o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli bolalar yosh jihatlariga mos turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga qatnashishini ta'minlash, mehnat, ijtimoiy foydali, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish lozim.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy vazifasi yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlarga, urf-odatlar va ananalarga tayanib, ongli shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat:


- o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish;
- tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo'lgan metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish;
- ilg'or tajribalarni tahlil qilish va uni o'z faoliyatida ijodiy foydalanish;
- tarbiyaviy ishlarning o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish;
- tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim.

Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan birga DTS lariga mosligiga e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya ishida jamoaga va ba'zi bir talablarga ta'sir qilishini tashkil etish tarbiyaviy ishlarning asosini belgilaydi.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy jihati barkamol avlodni har tomonlama kamol topishini hisobga olgan holda ularning tarbiyaviy jihatiga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilar yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda mahoratlikka, metodikaga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti va uning vazifalarini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:



Tarbiyaviy ishlar metodikasining xususiyatlari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi.


Har qanday fanlarni o'qitishning maqsadi yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish, ularning dunyoqarashini shakllantirishni bilish nazariyasining umumiy qonuniyatlari asosida hosil bo'lib, har qanday shaxs faoliyatida metodologik asos bo'lib xizmat qiladigan falsafa fanining roli beqiyosdir. Shuning uchun shaxs tarbiyasi jarayoni bilan shug'ullanadigan tarbiyaviy ishlar metodikasi fani falsafa fani bilan bog'liqdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ta'lim muassasalaridagi tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish shug'ullanganligi sababli pedagogika fani bilan uzviy bog'liqdir. Chunki pedagogika fani bola tarbiyasi va ularni o'qitish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan muassalarni amalga

oshiradi. Tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasi shaxsning qanday tarbiya topganligiga bog'liq. Shuning uchun tarbiya jarayoni tarbiyaviy ishlar bilan bog'liq holda rivojlanganligi tufayli pedagogikaning qonuniyatlariga tayanadi.

Tarbiyaviy ishlar jarayoni tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatlarida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatini bilmasdan turib, tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Shaxsning ruhiy holati va yosh xususiyatlarini o'rganadigan fan psixologiya fani hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish shaxsning psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lganligi uchun psixologiya fanining yutuqlariga tayanib ish olib boradi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasining fanlar bilan bog'liqligini quydagicha chizmada ifodalash mumkin:



O'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash, ularga ta'lim berish jarayonida ular organizmining rivojlanish bosqichlariga e'tiborni qaratish tarbiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki o'quvchi organizmining rivojlanishini bilmasdan unga ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi. Anatomiya, fiziologiya fanlari odam organizmi, uning rivojlanishi, tuzilishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiyaviy ishlar fani anatomiya, fiziologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq ish ko'radi.

Har qanday tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning gigiyenik qoidalariga asosan tashkil etishda yaratilgan shart-sharoitlar

muhim rol o'ynaydi. Ko'rinib turibdiki, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani gigiyena fani bilan ham bog'langan.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning ahloqiy sifatlari tarkib toptirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ahloq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish zarur. Ahloq normalari va ahloqshunoslik bilan etika fani shug'ullanadi. Shunday ekan, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani etika bilan ham uzviy bog'liqdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?

2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining mazmun mohiyati nimadan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilova Z, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: Istiqlol, 2003

2. Hasanboyev J.; To'raqulov X., Alqarov I., Usmanov N. Pedagogika. T.: Fan va texnologiya, 2010

3. Tarbiya ensiklopediya. Tuzuvchi M.N. Aminov. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

MAVZU: MILLIY TARBIYANING MAZMUNI VA MOHIYATI

REJA:

1. Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati
2. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi
3. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash



Tayanch ibora va atamalar: tarbiyaning maqsadi, barkamol avlod tarbiyasi, milliy tarbiya asoslari, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya.

„**Milliy tarbiya**“ tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, uning milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyati, umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli, xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirishdan iborat.

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi, biror-bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarning tiklanishini, milliy o'zlikni anglashni xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlari bilan uzviy bog'liq, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Jamiyatimizning, xalqimizning ming yillik ma'naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka ega bo'lish yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. Ma'naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbasi an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

Axloqiy tarbiya — shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviyaxloqiy tarbiya muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan

jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish, ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir.

Axloq (lotincha „moralis“ —xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi. Axloqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar ongiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko'rinadi.

„Axloq“, „xulq“ va „atvor“ so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida qo'llaniladi. Ayrim odamlar „Axloq — kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmuyi“ deyishsa, boshqalar esa „Axloq—ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, hamma sohalarda kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi“, deyishadi. Axloq me'yorlari xulq-atvorning regulyatori sifatida odat me'yorlariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo'lsa, axloq ixtiyoriydir. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo'lishga o'rgatadi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Xalq ta'limi tizimida o'qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashishi bilan bog'liq bo'ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Shaxsning jamoat va vatanga, mehnatga, kishilarga, o'z xulqiga munosabatlari quyidagilarda o'z aksini topgan:

- jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;
- mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
- atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat, yuqori muomala
- madaniyatiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish;
- shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonini Alpomish, To'maris, Shiroq kabi xalq qahramonlari, Amir Temur, Ulug'bek, Bobur

singari davlat arboblari va sarkardalarimiz, Ibn Sino, Beruniy kabi olim-u fuzalolarimiz qarashlariga tez-tez murojaat qilishimiz, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishining asosini tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda tarbiya borasidagi jahon standartlariga ham e'tiborni qaratmoq lozim. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvoffiq ravishda tarbiyalash — tarbiyalanuvchi shaxs axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishini talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy his-tuyg'ular o'quvchilarga atrofdagi kishilarning xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi turlichadir. Jumladan, axloqiy onglilik, axloqiy qadriyatlar, axloqiy histuyg'ular.

Ma'naviy qadriyatlar —ta'lim-tarbiyaning omili

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar o'zining ko'lami va ahamiyati jihatidan tarixiy voqeadir. Bu jarayonlar jamiyatimiz ma'naviy va ijtimoiy hayotida tub burilishlarni boshlab berdi va ular o'zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimiz istiqlolining eng dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimizning yaratgan boy madaniy merosini avaylab-asrash va keyingi avlodga yetkazish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir. Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodni qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq.

Qadriyatlar —inson uchun ahamiyatli bo'lgan millat manfaatlari yo'lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi, ya'ni:

— tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bulgan tabiiy shart-sharoitlar);

—iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari);

— ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, hamkorlik);
— ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar);
— falsafiy qadriyatlar (gʻoyalar, mafkuralar, konsepsiyalar);
— badiiy qadriyatlar (sanʼat, adabiyot, madaniyat); — diniy qadriyatlar (iymon, eʼtiqod, vijdon, savob).

Shu bilan birga, fanda qadriyatlarning milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi anʼana tusiga kirgan. Milliy qadriyatlar maʼlum bir millat, xalq va elatlarning oʻz tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (maʼnaviy) boylıkları yigʻindisidan iboratdir.

Qadriyatlar turli-tuman boʻlib, bular ichida „eng oliy qadriyat—inson“ hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining maʼnaviy, tarixiy hamda taʼlimiy jihatlari oʻziga xos yangicha fikrlash va yondoshishlarga asoslanadi. Jamiyatda milliy qadriyatlarni oʻz qalbida mustahkam saqlash, atrof-muhit, tabiat va hayotni goʻzal, farovon qilish, demokratiya asoslari hamda jamiyatda amal qilayotgan progressiv gʻoyalar buyuk qadriyat hisoblanadi. Inson qadriyati uning dastavval oʻzoʻziga va shu jamiyatga boʻlgan hurmati hamda munosabati, xulq-atvori bilan chambarchas bogʻliq boʻladi. Bu insonga oʻz xulq-atvorini tartibga solishi, oʻziga nisbatan talabchanlik va nazoratni kuchaytirishga imkon beradi. Insonning shaxsiy qadriyatini milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan boʻlib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va maʼnaviy pokligini taʼminlovchi bir buyuk manbadir. Bir soʻz bilan aytganda, mutafakkir olimlar yuksak maʼnaviy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar va targʻib qildilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida maʼnaviy omillarni yuksak baholadilar. Shu maʼnoda oʻsib kelayotgan yosh avlodda yuksak maʼnaviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish zaruriyati yuzaga keldi. Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan meʼyor va qoidalardan iborat boʻlib, ular kishilarning jamiyatga boʻlgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu meʼyor va tartibqoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur boʻlgan axloqqa ega boʻlishlikni talab qiladi. Axloq

insonning dunyoqarashi, xulqini belgilovchi insoniy fazilatdir. Shu bois dunyoqarash o‘zgarmaguncha inson ham o‘zgarmaydi.

O‘zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta’rif beradi: „Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitob axloq deyilur“.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Milliy tarbiyaning mazmun-mohiyatini ochib bering.
2. Milliy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Ma’naviy qadryatlarga nimalar kiradi?
4. Milliy o’zlikni anglash nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilova Z, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: Istiqlol, 2003
2. Hasanboyev J.; To’raqulov X., Alqarov I., Usmanov N. Pedagogika. T.: Fan va texnologiya, 2010
3. Tarbiya ensiklopediya. Tuzuvchi M.N.Aminov. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

MAVZU: TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

REJA:

1. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.
2. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.
3. Tarbiya turlari haqida.



Tayanch ibora va atamalar: tarbiyaning maqsadi, tarbiya maqsadining xilma-xilligi, barkamol avlod tarbiyasi, milliy tarbiya asoslari, tarbiya tizimining uzluksizligi, barkamol shaxs tarbiyasi.

1. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni

Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishi, yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Chunki, kadrlar tayyorlash milliy modelimizning bosh muddaosi barkamol shaxs va intellektual salohiyatli mutaxassis tayyorlashdan iborat bo'lib, O'zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan, mustaqil fikr yuritadigan, tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda insonning ichki sifatleri barq urib kamolotga yetgan kadrlarni tayyorlashni ko'zlaydi. Mazkur maqsadni amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri tarbiya jarayonidir. Tarbiyaning maqsadi natijasi barkamol avlodni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, o'quvchi shaxsning o'zi tomonidan faollik ko'rsatishni taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi vazifani bajaradi. Chunki ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari, mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakllari, metodlar va vositalarni asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiyaga tadbiiq etadi.

Inson shaxsi ko'p sonli omillar ta'siri natijasida shakllanadi va rivojlanadi: ob'ektiv va sub'ektiv, tabiiy va ijtimoiy, ichki va tashqi, odamlarning ongi va shuuriga bog'liq bo'lgan va bo'lmagan. SHu sababli

insonning o‘zi ham tashqi ta’sirni shunchaki aks ettiruvchi sust mavjudot emas. U o‘zining shaxsiy shakllanishi va rivojlanishi sub’ektidir.

Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchining shaxsigamuntazam va tizimli ta’sir etish imkonini beradi.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan hissiyotlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi [6].

Demak, tarbiya ijtimoiy hodisa bo‘lib, insoning shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma’naviy qadriyatdir. Tarbiya insoniyat paydo bo‘lishi bilan birga paydo bo‘lgan bo‘lib, usiz alohida shaxs ham, kishilik jamiyati ham faoliyat ko‘rsata olmaydi. Chunki, tarbiya inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyat bo‘lib, u avloddan, avlodga o‘tib boraveradi.

Tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy jihatlarini qaror toptirish ko‘zda tutiladi. Dunyoqarash, e’tiqod ezgulik, go‘zallik, yaxshilik, odatlilik va ko‘nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamida amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki faoliyatni – o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o‘quvchining ongi shakllanib boradi. His-tuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta’siri bolaning ularga munosabati, bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qanday anglashni baholashi, his qilishni anglashi e’tiborga molikdir. Ulardan o‘zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi.

Tarbiya jarayoni o'quvchining ongini emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan huquqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini – tarbiya jarayonining manbasini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bir so'z bilan aytganda tarbiya jarayoni – har bir insonning hayotda yashashi (umumiy faoliyat, ta'lim, tarbiya) jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zida shakllantirish va o'zgalarga berish jarayonidir. Tarbiya jarayonida ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, u bevosita tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, qarama-qarshiliklar kuchayadi.

Tarbiyalanganlik – milliy urf-odatlar, qadriyatlarga e'tiqod bilan rioya qiladigan, noqonuniy ishlardan o'zini tiya oladigan, o'z xatti-harakatlari bilan o'zgalarga nafratini qo'zg'amaydigan xulq-atfordir. Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri – o'quvchilik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o'qish, mehnat, o'yin sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etishi mumkin. Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshiriladi, uning tarkibiy qismlari ham ayni bir vaqtda faoliyatning biror turi asosida amalga oshiriladi.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- ✓ jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- ✓ jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos etarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;
- ✓ madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- ✓ ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

2. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va ta'lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- ✓ maqsadga yo'naltirilganligi;
- ✓ ko'p qirrali jarayon;
- ✓ uzoq muddat davom etishi;
- ✓ uzluksizligi;
- ✓ yaxlitligi;
- ✓ variativligi;
- ✓ natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- ✓ ikki tomonlamalilik;

Tarbiya qonuniyatlari – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatlari mavjud:

- ✓ ijtimoiy muhitning ob‘ektiv va sub‘ektiv omillariga bog‘liqligi;
- ✓ tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- ✓ faoliyat va munosabatni e‘tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;
- ✓ tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta‘siri, o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanish;
- ✓ tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning intensivligi;
- ✓ tarbiyalanuvchining “ichki olami”ga ta‘sir etishning intensivligi (G.I. Shukina);
- ✓ tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta‘sirni hisobga olish (G.I. Shukina).

Tarbiya tamoyillari

Tarbiya tamoyillari deb yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni va yo‘nalishiga qo‘yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g‘oya va qoidalar yig‘indisiga aytiladi.

Tarbiya tamoyillari o‘qituvchi va tarbiyalanuvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg‘or ta‘limotlar g‘oyalariga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg‘or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta‘minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviyligi;
- Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustunligi;
- Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarining ustunligi;
- Tarbiyada izchillik va tizimlilik;

- Tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish;
- Tarbiyani mehnat bilan bog'lash;
- Tarbiyalanuvchi shaxsni xurmat qilish;
- Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- Tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish.

Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi – o'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur.

Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash – ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirish, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil respublikamiz xalq ta'limi hodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ruyobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

O'qituvchi (tarbiyachi)lar jamoasi va har bir o'qituvchi – tarbiyachi tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi – tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini xurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu – tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlaridan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya obyektiga emas, balki

o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchi teng huquqli hamkor, hamfikr deb qarash lozim.

Umuman, ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning diqqat markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyat yotadi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi – xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an'analari, urf odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadrlı, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagi uchun dahldor qadr-qimmatga ega bo'lgan an'alar, urf-odatlar haqida ma'lumotlar berish, ularda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularni qo'llab-quvvatlash, ezgu g'oyalar uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyada izchillik va tizimlilik – tarbiyaga yaxlit tizimli yondoshish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O'quvchilarga birdaniga ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O'qituvchilar o'quvchilarga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro bir-biriga zid harakatda bo'lmasliklari, yagona talab qo'yishlari lozim.

Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish. Mehnatning tarbiyaviy ta'siri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan shaxs o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini taminlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda

bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Maktabda o'qishning o'zi ham mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog'langan.

Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish – o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishicha, qayerdagi o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsa, shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi, o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish – tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yosh va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabda rivojlanishining turli davrlarini bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatleri har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir o'quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchi xususiyatini o'rganish maqsadga muvaffiqdir.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash – tarbiya jarayoni o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi. Jamoada bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. O'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarini amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatli bo'ladi, har bir shaxsga ta'sir etadi. O'z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo'shib

olib borish, o'zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi. O'qituvchi hamma vaqt o'quvchilar jamoasiga tayanmog'i, ularni jamoa bo'lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga o'rgatib borish lozim.

Tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy xislatlarini yo'qotib borishga e'tibor qaratish lozim. Mahoratli pedagoglar o'z o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini yaxshi biladilar. Tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun bola xulqidagi ijobiy sifatlarga suyanib ish ko'radilar. Boladagi ijobiy sifatlarga tayanish uning salbiy sifatlarini yo'qotish, yomon odatlardan qaytarishning eng yaxshi vositasidir. Tarbiya muvaffaqiyati mazkur masalaning to'g'ri hal etilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga egadir.

3. Tarbiya turlari.

Tarbiya turlari turli sohalarga ko'ra tasnif etiladi. Ko'proq umumlashgan tasnif o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo'nalishlari bilan bog'liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo'linadi. Institutsional belgilariga bo'yicha oila, ta'lim muassasasi, ta'lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta'lim muassasalaridagi tarbiyaga bo'linadi.

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko'ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy konsepsiyalar bilan bog'liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

Aqliy tarbiya ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobilyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Uning asosiy vazifasi – ta'lim oluvchilarni fan asoslari bo'yicha bilimlar tizimi bilan qurollantirish. Ularni o'zlashtirish natijasida dunyoqarash asoslari shakllanishi zarur.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar:

- ✓ belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash;
- ✓ dunyoqarashni shakllantirish;

- ✓ aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ✓ bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;
- ✓ shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;
- ✓ bilish faoliyatini shakllantirish;
- ✓ doimiy ravishda o‘z bilimlarini to‘ldirish, umumta’limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;
- ✓ ta’lim oluvchilarni bilish faoliyati metodlari bilan qurollantirish;
- ✓ fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish.

Jismoniy tarbiya - deyarli barcha tarbiyaviy tizimlarning ajralmas tarkibiy qismi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari:

- ✓ salomatlikni, to‘g‘ri jismoniy rivojlanishni mustahkamlash;
- ✓ aqliy va jismoniy ishchanlik qobiliyatini oshirish;
- ✓ tabiiy harakatlantiruvchi sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirish;
- ✓ yangi harakat turlarini o‘rgatish;
- ✓ gigienik malakalarni rivojlantirish;
- ✓ axloqiy sifatlarni tarbiyalash;
- ✓ doimiy va tizimli tarzda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish ehtiyojlarini shakllantirish;
- ✓ sog‘lom, tetik bo‘lishga, o‘ziga va atrofdagilarga quvonch ulashishga ishtiyoqni rivojlantirish;

Mehnat tarbiyasi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishining muhim tamoyili.

Mehnat tarbiya jarayonida shaxs rivojining bosh omili, dunyoni ijodiy o‘zlashtirish, turli sohalardagi mehnat tajribalarini egallash usuli, umumiy ta’limning ajralmas qismi sifatida yuzaga chiqadi.

Mehnat tarbiyasining asosiy vazifasi – o‘quvchilarni mehnat jarayonlari, vositalari, predmetlari haqidagi bilimlar, ishlab chiqarish mehnatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan umummehnat va maxsus ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Bundan tashqari mehnat tarbiyasi quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- ✓ mehnatga samimiy munosabatni;
- ✓ mehnatga qiziqishni, chin dildan bajarilgan vazifadan zavqlanish

hissini va mehnatga oid bilimlarni amaliyotda qo‘llashni;

- ✓ mehnatdagi intizomlilikni tarbiyalash.

Axloqiy tarbiya – shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri. Axloqiy tarbiya bu o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy ma‘naviy-axloqiy bilimlar negizida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, axloqiy sifatlarni qaror toptirishga yo‘naltirilgan murakkab dinamik jarayon. Axloqiy tarbiyaning vazifalari jamiyatning shaxsga axloqiy talablarida aks etadi. Bu vazifalar o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ✓ axloqiy ongini, mustahkam axloqiy e‘tiqodni;
- ✓ axloqiy his-tuyg‘uni;
- ✓ axloqiy xulq-atvor malaka va odatlarni;
- ✓ axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

Estetik tarbiya –tarbiyalanuvchilarda estetik ideallar, ehtiyoj va qiziqishni rivojlantiruvchi tarbiya zanjiri va tarbiyaviy tizimlarning tayanch tarkibiy qismlaridan biri.

Estetik tarbiyaning vazifalari:

- ✓ estetik bilimlarni shakllantirish;
- ✓ estetik madaniyatni shakllantirish;
- ✓ o‘tmishdan qolgan estetik va madaniy merosni egallash;
- ✓ borliqqa estetik munosabatni shakllantirish;
- ✓ estetik his-tuyg‘uni rivojlantirish;
- ✓ ta‘lim oluvchilarni hayotda, tabiatda, mehnatda go‘zalliklarni yaratishga ishtirok ettirish;
- ✓ hayotiy faoliyatni go‘zallik qonuniyatlari asosiga qurishga bo‘lgan ehtiyojni rivojlantirish;
- ✓ hamma narsada: fikrda, ishda, tashqi ko‘rinishda go‘zal bo‘lishni shakllantirish.

Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadi – shaxsda bozor iqtisodiyoti sharoitlariga hamda maqsadga muvofiq iqtisodiy faoliyatni amalga oshira olish qobiliyatini shakllantirish. Bu maqsad yaxlit vazifalarni hal qilish yo‘llarini izlab topishga imkon beradi:

- ✓ ta‘lim oluvchilarda iqtisodiy bilimlarni egallash va iqtisodiy faoliyatga ehtiyojni shakllantirish;

✓ ularning asosiy iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalar, qonunlar va jarayonlarni o‘zlashtirishi;

✓ uddaburonlik, mas’uliyatlilik, mustaqillik, tadbirkorlikni rivojlantirish;

✓ ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan malakalarni egallash;

✓ bozor iqtisodiyoti sharoitida insonning tasodifiy qiyinchiliklarga imkon qadar psixologik tayyorgarligini shakllantirish.

Ekologik tarbiya ta’lim oluvchilarning tabiat va insonning o‘zaro harakatining ilmiy asoslarini egallaganliklari bilan bog‘liq. Uning maqsadi – atrof-muhit holati uchun shaxsning axloqiy mas’uliyatini tarbiyalash, barcha faoliyat turlarida ular haqida domiy g‘amxo‘rlik zaruriyatini anglashga yo‘naltirilgan ilmiy bilimlar, qarashlar, e’tiqodlar tizimini shakllantirish.

Ekologik tarbiyaning vazifalari quyidagilarda aks etadi:

✓ tabiat haqidagi asosiy tushunchalar va ilmiy dalillarni o‘zlashtirish;

✓ jamiyat va har bir insonning moddiy va ma’naviy quvvati manbai sifatida tabiatning ko‘p qirrali ahamiyatini tushunib etish;

✓ amaliy bilimlar hamda atrof-muhitning holatini o‘rganish va baholash ko‘nikmalarini egallash;

✓ tabiat bilan muloqot ehtiyojlarini, tabiatdagi xulq-atvor me’yorlariga ongli amal qilishni rivojlantirish;

✓ tabiiy va o‘zlashtirilgan atrof-muhitni yaxshilash bo‘yicha faoliyatni faollashtirish.

Huquqiy tarbiyaning maqsadi – huquqiy ongini va yosh fuqaroning xulq-atvorini shakllantirish.

Huquqiy tarbiyaning asosiy vazifalari:

✓ ta’lim oluvchilarning zarur huquqiy bilimlarni egallashi;

✓ ta’lim oluvchilarni asosiy fuqarolik huquqi va majburiyatlariga amal qilishga o‘rgatish;

✓ imkon qadar huquqbuzarliklarni oldini olish.

 **Esda saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan tushunchalar:**

Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetishi uchun ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, insonning jamiyatda muayyan sifatlarini (jismoniy, ma'naviy, ruhiy, aqliy) ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Tarbiya jarayoni – har bir insonning hayot uchun yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatini o'zida shakllantirish hamda o'zgalarga berish jaryonidir.

Tarbiya maqsadi – talaba-yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo'llaniladi.

Tarbiya tamoyillari – yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisi.

Tarbiya qonuniyatlari – tabiat yoki millatdagi har qanday murakkab hodisa obyektiv ravishda mavjud bo'ladigan barqaror aloqalar tizimidir.

Tarbiya vazifasi – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari hamda ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligini qanday metodlardan foydalanishga bog'liqligi.

Tarbiyalanganlik – milliy urf-odatlariga, qadriyatlarga e'tiqod bilan rioya qiladigan, noqonuniy ishlardan o'zini tiya oladigan, o'z xatti-harakatlari bilan o'zgalar nafratini qo'zg'amaydigan xulq-atvordir.

Komil inson – yetuk, to'liq, mukammal, barkamol, olimu dono, aqli teran, yaxshi tarbiya ko'rgan, odob-axloqli, ma'naviy jihatdan to'liq shakllangan inson.

✉ **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?
3. Tarbiya to'g'risida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy nima degan?
4. Tarbiyaviy ishlarni demokratlashtirish deganda nimani tushunasiz?
5. Tarbiyaviy ishlarni insonparvarlashtirish nimadan iborat?

6. Oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni qanday tashkil etiladi?
7. Barkamol inson o'zida qanday xususiyatlarni mujassam qiladi?
8. Tarbiyaning qanday turlari mavjud?
9. Tarbiya jarayonining asosiy qonuniyatlarini aytib bering.
10. Tarbiya jarayonining tamoyillari deganda nimani tushunasiz?


 **Mavzularni o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.
4. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.
5. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild, 270 bet.
7. Quronov M. Otalar kitobi.1
8. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006, 284 bet.

MAVZU: JAMOA TARBIYA OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA

REJA:

1. Jamoa haqida tushuncha, uning xususiyatlari va vazifalari.
2. Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash
3. Jamoaning tarkib topishi va rivojlanish bosqichlari.
4. O'quvchi-yoshlar uyushmalariga pedagogik rahbarlik.

 **Tayanch ibora va atamalar:** barkamol shaxs tarbiyasi, jamoa, o'quvchilar jamoasi, o'quvchi, sinf, maktab, mahalla, tarbiya, mehnat tarbiyasi, rahbar, mas'uliyat, guruh, guruh a'zosi, birgalikdagi faoliyat, jamoaning rivojlanish bosqichi, pedagogik talab.

1. Jamoa haqida tushuncha, uning xususiyatlari va vazifalari

Jamoa (lotincha «kollektivus» soʻzining tarjimai boʻlib, yigʻilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha aʼzo (kishi)lardan iborat boʻlib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Turkiyzabon xalqlarda, jumladan oʻzbeklarda jamoa azaldan ijtimoiy birlikni anglatib kelgan. Odamlarning jamoa boʻlib yashashi zaruriyatini Suqrot, Platon, Aristotel, Markaziy Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulugʻbek, Alisher Navoiy va boshqalar ilmiy asoslab berganlar. Ayniqsa, buyuk faylasuf olim Abu Nasr Forobiy oʻzining asarlarida jamoa boʻlib yashashga tabiiy moyillik inson turmush tarzining mazmunini tashkil etishini uqtiradi. Forobiy bu haqda quyidagi fikr-mulohazalarni bayon etgan: «Har bir inson oʻz tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun koʻp narsalarga muhtoj boʻladi, u bir oʻzi shunday narsalarni qoʻlga kirita olmaydi, ularga ega boʻlish uchun odamlar jamoasiga ehtiyoj tugʻiladi. Shu sababli yashash uchun zarur boʻlgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va oʻzaro yordamlashuvchi koʻp kishilarning birlashuvi orqaligina odam oʻz tabiati boʻyicha intilgan etuklikka erishishi mumkin. Bunday jamoa aʼzolarining faoliyati bir-butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur boʻlgan narsalarni etkazib beradi. SHuning uchun inson shaxslari koʻpaydilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi».

Jamoa odamlar maqsad-manfaatlarining umumiyligi, o‘zaro hamkorlik qilishlari zarurligi, mehnat va maishiy hayotiy faoliyatlari yo‘nalganligi zaminida o‘zaro birgalikda harakat qilishlarini taqozo etishdan vujudga keladi. Odamlarning faoliyat turlariga mutanosib tarzda mehnat, ta’lim-tarbiya, maishiy hayot, badiiy ijod, harbiy, jismoniy tarbiya, sport, oila kabi doiralarda jamoalar vujudga kelishi va samarali amal qilishi mumkin.

Zamonaviy talqinda «jamo» tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o‘quv yurti jamoasi, xo‘jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. CHunonchi, o‘quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

2. Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillardan biridir. SHaxsni shakllantirishda jamoaning etakchi rol o‘ynashi to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a‘zolari o‘rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta’minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo‘lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

1. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi. Jamoaning maqsadi albatta ijtimoiy maqsadlar bilan mos kelishi, jamiyat va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, Davlat konstitutsisi va qonunlariga, jamiyat mafkurasiga qarama-qarshi bo‘lmasligi zarur.

2. Umumiy birgalikdagi faoliyat. Kishilar aniq maqsadga birgalikda tez erishish uchun jamoaga birlashadilar. Buning uchun jamoaning har bir a‘zosi birgalikdagi faoliyatda faol ishtirok etishi zarur, faoliyat Umumiy tashkil eetilishi kerak. Jamoa a‘zolari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun yuqori shaxsiy javobgarlikni his qilishlari bilan ajralib turishadi.

3. Majburiy mas’uliyatli munosabatning yo‘lga qo‘yilishi. Jamoa a‘zolar orasida faqatgina yagona maqsad va faoliyat emas, ularning g‘am-

qayg'ularining aloqador birligi aks etuvchi maxsus munosabatlar yuzaga keladi.

4. Saylangan umumiy rahbariy organga egalik. Jamoada demokratik munosabatlar o'rnatiladi. Jamoani boshqarish organlari jamoaning obro'li a'zolarini to'g'ridan-to'g'ri, ochiq saylab olish asosida shakllantiriladi.

Mazkur aytilgan belgilaridan tashqari jamoa boshqa muhim o'ziga xosliklari bilan ham farqlanadi. Bu jamoa ichki muhitida aks etuvchi o'ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a'zolari orasidagi munosabatlarda ko'rinadi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in - bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. SHuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi.

Yuqoridagi jamoaning o'ziga xos belgilaridan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin. **O'quvchilar jamoasi** – bu ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhidir.

3. Jamoaning tarkib topishi va rivojlanish bosqichlari

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir.

Jamoaning vujudga kelish uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o'qituvchi butun guruhga talab qo'yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a'zolari oldiga ma'lum talablarni qo'yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a'zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So'nggi (to'rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a'zosi o'z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo'yish layoqatiga ega bo'ladi.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, chunki jamoaning bosqichlari chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay, pedagogik nuqtai nazardan jamoaning shakllanish bosqichlariga ajratish juda muhimdir.

Bolalar jamoasi rivojlanishning **birinchi** bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki tashkil etuvchi birlik (sinf, guruh)dir. Tarbiyalanuvchilar talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqali jamoa qaror topadi. Tarbiyalanuvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinadigan ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishiga tarbiyalanuvchilardan jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishning paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribalarga ega emasliklari bois, mazkur bosqichda pedagogning asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo'ladi.

Ushbu bosqichda pedagogning talabchanligi qat'iyliigi, izchilligi, murosasizligi va jamoaning barcha a'zolariga talabni birday qo'ya olishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchining «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligini, aks holda bir qarashdan intizomning vujudga kelganligi ma'lum bo'lsada, guruh a'zolarining faolliklarini rivojlantirish uchun sharoitning mavjud emasligini hisobga olish zarur. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridandirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar va pedagog faoliyati va talablariga nisbatan hayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar pedagogning yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining **ikkinchi** bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faollarining pedagog talablarini qo'llab-quvvatlashi hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan

tavsiflanadi. Endilikda pedagogik jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq bo'lgan muammo, masalalarni yolg'iz o'zlari hal qilmaydilar. Jamoa faollari bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga ularni jalb etadi. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi.

Tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan muttasil rejalashtirishi, tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarni muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyatini ko'rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida faoliyat motivlari (rag'batlari)ning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faollarining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, namuna bo'lishi, o'z burchini aniq va puxta bajarishi hamda o'z mavqelarini suiste'mol qilmasliklari juda muhimdir. Bu o'rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan «Jamoa vijdoni» deya bergan ta'rifini eslab o'tish joizdir. Jamoa faollari bir muncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsa-da, ayni paytda uning o'ziga oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismi xolos. Bordi-yu jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faollari guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfi tug'ilishi mumkin. Mazkur bosqichda jamoa moddiy va ma'naviy imkoniyatlarini to'plab, mustahkamlanib va boyib borar ekan, shaxsning har tomonlama ulg'ayishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni sekin-asta yaratib beradi.

Bu esa ikkinchi bosqichni – jamoa shaxsni har tomonlama kamolga yetkazishni obyektiv shakli asosida boshlashini taqozo etadi. Bunda boshlang'ich davr bekor ketmaydi, faqat salbiy jo'shqinlikka emas, balki ijobiy jo'shqinlikka ham ega bo'ladi. Bir tomondan, u qiyinchiliklarga tayyorlanish imkonini beradi, bolada o'z-o'zini anglash va o'zini idora

qilishga intilishni tarbiyalaydi. Ikkinchi tomondan, bu bosqichni amalga oshirish kishini har tomonlama ulg'ayishi uchun zarur bo'lgan amaliy va ma'naviy munosabatlar tizimi vujudga keladi.

Jamoa rivojlanishining **uchinchi** bosqichi jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashicha, bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qo'ya boshlaydi.

Jamoaga endilikda faqat faollargina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yo'nalishdagi ishni maqsadga muvofiq va izchil olib borgan sharoitda ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasini jamoaning birgalikdagi faoliyati yakuni, uning a'zolari tomonidan jamoa bo'lib muhokama qilinadi: turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy, g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va boshqa bilimlar targ'iboti tashkil etiladi. Pedagog jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarini ijobiy tajribaga qo'shish imkonini beradigan, o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi. Jamoa o'zining har bir a'zosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirib borish, jamoa a'zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarni tarkib toptirishga yordam beradi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlarining yuzaga kelishining sababi, uning a'zolarini yuksak axloqiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil qilishda faol ishtirok etishlarini samarasidir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda faqat jamoa faoliyatini emas, balki jamoaning har bir a'zosi bir-birlariga axloqiy mazmundagi talablarni qo'ya boshlaydi.

Jamoa rivojlanishining **to'rtinchi** bosqichi. Bu bosqich uchinchi bosqichning bevosita davomi bo'lib, uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan talablar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish mumkinki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga muayyan talablar qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir

talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan, o'yinda umuminsoniyat baxti uchun kurashishga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi. Xuddi shu jihatdan to'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy extiyojlariga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'sib o'tadi. Biroq, u ayrim shaxsning yanada rivojlanishida jamoaning tutgan o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldidagi istiqboli, yuksak va murakkab talablar qo'yish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Bugungi kunda pedagog olimlar (L.I.Novikova va boshqalar) bolalar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilar ekan, uni quyidagi ikki bosqichga bo'ladi:

- jamoani dastlabki jipslashtirish;
- jamoani shakllantirish, uning har bir a'zosini individual rivojlantirishning rolidir.

Jamoa hayotidagi har bir bosqichlarini ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan edi. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

1. Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi;
2. O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qiyamatini anglash;
3. Uning a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;
4. Jamoaning har bir a'zosidagi do'stona birlik;
5. Tartibli, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;
6. O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi.

4. O'quvchi-yoshlar uyushmalariga pedagogik rahbarlik

Jamoaning rivojlanishi – jamoa hayotining qonunidir. Xo'sh, bolalar jamoasining olg'a harakat qilib borishiga nima yordam beradi? Uning rivojlanishiga nima imkon beradi? Bunday kuch istiqboldir. Hayot shuni

ko'rsatadiki, kishining kelajakka umid va ishonch bilan intilishi, hayotiy istiqbolini yurtimizning taqdiri bilan bog'lab, mustaqil diyorimizning bugungi jamiyat sharoitida ma'naviy va ma'rifiy qiyofasini yaratishda hissa qo'shgan kishi va jamoa tobora shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu intilish va hayotiy istiqbolda kishining ma'naviy va madaniy ehtiyojlarining jami, uning rivojlanganlik darajasi, butun ma'naviy qiyofasi aks etadi. Istiqbolning eng muhim pedagogik xususiyatlaridan biri shuki, degandi A.S.Makarenko, u oldinga qo'yilgan maqsad sifatida bolani istagan natijaga erishish imkoniyati bilan qiziqtiradi, unda kelajakni barpo etishda qatnashish istagini uyg'otadi. Quvnoq kayfiyat va olg'a intiluvchilikni vujudga keltiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan istiqbol deganda, shaxsning bolalar guruhini, umuman jamoani rivojlantirishning ichki ehtiyojlariga javob beruvchi, uning a'zolarini rivojlanish darajasiga, ularning yosh va individual xususiyatlariga hamda jamiyatimiz vazifalariga mos keladigan vazifalar, maqsadlar, ishlari tushuniladi.

Jamoani vujudga keltirish va o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash maqsadi bilan tashkil etiladigan istiqbollari ularning hammasi uchun xarakterli bo'lgan ayrim umumiy xususiyatlarga ega bo'ladi:

1. Bevosita bolalarning qiziqishiga hamda vazifani bajarish uchun birgalikda jamoa bo'lib kurash olib borishning quvonchli manzarasiga asoslangan ishlarning maroqli bo'lishi;

2. Ishlarning ijtimoiy foydali qiymati va ularning butun xalqimiz olib borayotgan kurash bilan bog'liqligi;

3. Istiqbol uchun kurashning borishini aniq tashkil etish;

4. O'quvchi-yoshlarda konkret axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik maqsadga muvofiqlik.

Har xil istiqbollarni tashkil etishdagi asosiy metodik usul bolalarni birorta istiqbolga erishish uchun kurashga tayyorlashdan iboratdir. Bu tayyorgarlikka ish rejalari, loyihalar va boshqalarni muhokama qilish kiradi. So'ngra istiqbol sari harakat qilishga yordam beradigan amaliy ish bajarilishi lozim. Bu ish jamoani tashkil etish va jipslashtirish jarayonidagi eng muhim bosqichlaridan biridir. Shunga erishish kerakki, barcha yoshlar

umumiy faoliyatda ishtirok etsin va bu ishtirok etish faol, ijobiy xarakterga ega bo'lsin.

Topshiriqlarni jamoaning barcha a'zolari o'rtasida to'g'ri taqsimlash bolalarni qiziqarli ishlarni bajarishga jalb qilishning asosiy yo'lidir. Bolalarning aql-idroki emas, balki ularning xis-tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatish uchun har qanday ish aniq tashkil etilishi, chiroyli jixozlanishi kerak. Ayniqsa, bayramlarni chiroyli va tantanali qilib tashkil etmoq kerak. Bu bayramlarda ota-onalar va mehmonlar ishtirok etsa, bayram davomida bolalar mukofotlansa, musobaqa yakunlari e'lon qilinsa, yaxshi bo'ladi. Bolalarning tayyorgarlikda jamoa maqsadiga erishish jarayoniga jalb qilishning tarbiyaviy ahamiyati shu jihatdan kattaki, bu yo'l bilan bolalarni maqsadga qaratilgan jamoa axloqiy xulq-atvorini egallashga mashq qildirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab bolalarning dars jarayonidagi tanaffus, jamoat joylari hamda uydagi xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi. Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi o'quv muassasasida muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi.

Pedagoglar tomonidan qo'yiladigan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish bilan qo'shilishi kerak;
2. Qo'yilayotgan talablar muayyan o'quv muassasasidagi mavjud sharoitni hisobga olib holda qo'yilishi lozim;
3. Qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi kerak;
4. O'quvchi-yoshlarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish, o'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashi mumkin, biroq aksariyat

hollarda rioya qilmaydilar. Shu bois, muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo'yilish jarayonida ularga ta'lim oluvchilarning amal qilish ustidan nazorat o'rnatishi lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi. Nazorat haqqoniy va muntazam bo'lishi kerak. Uning natijalaridan o'quvchi-yoshlarni ogoh etib borish lozim.

- Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faollarni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faollarini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan extiyoji mazmunidan kelib chiqadi.

Ishonchli, ishchan faollarni yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini, ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatini tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur. Jamoa faollarini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibida bolalarning o'zlari, albatta pedagog ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagog jamoa faoli bilan maslahatlashish tashkil etadi. Jamoa faollarining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifa yuklash, ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish lozim. Pedagog ayni shu faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois, pedagog faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish – bu pedagoglar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o'quvchilarni faol ishtirok etishidir. O'z-o'zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a'zolarining yig'ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar faoliyati muhim o'rin tutadi.


- O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoa an'analari – bu barqarorlashgan odat bo'lib, ularni jamoa a'zolari birdek qo'llab-quvvatlaydilar. Jamoa an'analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi:

- 1) Kundalik faoliyat an'analari;
- 2) Bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam) hamda mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Bayram an'analariga turli voqeya hodisalar bilan bog'liq sanalarni nishonlash, xususan, «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar kiradi. An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarida turlicha o'tkaziladi. O'quvchilar an'analar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lsa ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

An'analarni yuzaga kelishida o'quvchi-yoshlarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi borasida quyidagi andozaning yaratilishi ta'minlanadi.



1-shakl. Shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlar.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Jamoa kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgilar)ni namoyon etadi.

2. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysinadigan, uzoq muddatli, murakkab dinamik jarayon bo'lib, ko'pchilik pedagoglarning e'tirof etishlaricha, to'rt bosqichli jarayonda qaror topadi.

3. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo'yilishi jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

Jamoaning mustahkam bo'lishi a'zolari o'rtasida o'zaro yordam, hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

Esda saqlab qolish uchun zarur bo'lgan tushunchalar:

Jamoa – lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasini bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi. Jamoa kishilardan iborat guruh hisoblanadi.

Jamoaviylik – jamoa bilan birdamlik, o'zini jamoaning bir bo'lagi deb his qilish tuyg'usi.

O'quvchilar jamoasi – ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni tashkil etish, shuningdek, umumiy javobgarlik va umumiy saylov organlari, barcha a'zolarining huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

Istiqbol – shaxs bolalar guruhini, jamoani rivojlantirishning ichki ehtiyojlariga javob beruvchi, jamiyat vazifalariga mos keladigan vazifalar, maqsadlar, ishlar tushuniladi.

O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish – bu pedagoglar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o'quvchilarni faol ishtirok etishidir. O'z-o'zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a'zolarining yig'ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar faoliyati muhim o'rin tutadi.

✉ **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Jamoa so'zining ma'nosini tushuntiring.
2. Jamoa orqali tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
3. Jamoani tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
4. Jamoaning rivojlanish bosqichi deganda nimani tushunasiz?
5. O'quvchilar jamoasiga izoh bering.
6. Jamoaning rivojlanish bosqichi necha qismdan iborat?
7. Jamoani tashkil etishning ma'nosini tushuntiring.
8. Jamoaning faoliyatiga qo'yiladigan talablariga nimalar kiradi?
9. Jamoa an'analari deganda nimani tushunasiz?
10. Shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatni izohlang.


Mavzularni o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent, 1992.
5. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Toshkent, 1997.
7. Asqarova M. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Talqin, 2008. - 288 b.
8. Jabborov U. Sohibqiron davrida adolat // “Milliy tiklanish” gazetasi, 2007 yil, 11 aprel.
9. Ibrohimov A., Sulstonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. –T.: O'zbekiston, 1996. – 17-18 betlar.
10. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.

MAVZU: TARBIYANING UMUMIY METODLARI

REJA:

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.
2. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni.
3. Tarbiya metodlarining tasnifi
4. Tarbiyada ibrat-numana ko'rsatishning tutgan o'ri.
5. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

 **Tayanch ibora va atamalar:** tarbiya, tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar, odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari, tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.

Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyati (u nimaga qaratilgan, nimani to'ldiradi, nimaga yo'naltirilgan, qanday shaklda tugallanadi)ni ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash savoli bilan aloqador yana bir muhim kategoriya ham mavjud. Bu tarbiya metodi tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o'zining tarbiyalanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'rganilmagan so'qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana

boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo'llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to'g'ri qo'llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda *tarbiya vositalari* tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta'sir ko'rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig'indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko'rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko'rsatish – bu usullar. So'z (keng ma'noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqkoslash – usullar. Bu bilan bog'liqlikda ba'zan tarbiya metodlari qo'yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo'ladi.

2. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqldaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. SHuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal qilinadi. YOsh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar

ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari ham o'zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularni individual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligini rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qo'llanmalar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'kituvchida ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo'ladi.

9. Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam , maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak.

3. Tarbiya metodlarining tasnifi

Zamonaviy pedagogikada ba'zilar amaliy vazifalarni hal etishga, ba'zilar faqat nazariy vazifalarni o'zida aks ettiradigan o'nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra ishontirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berishga bo'linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi uo'zida yo'nalganlikni, o'ziga xoslikni, qo'llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko'proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o'zida ishontirish, faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning xulq-atvorini rag'batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S. Makarenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi: tushuntirishli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o'rgatish va mashq metodlari, rag'batlantirish, to'sqinlik qiluvchi, boshqarish, o'zini-o'zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishi natijalariga ko'ra metodlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:


1. Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi.

2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga

olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi.

O'quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo'llanganiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarni ular uchun yangi bo'lgan mehnat faoliyatini o'rgatishda o'quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, ularda kun tartibi aniq bo'lishi muhimligini, ularga o'quvchilarning qat'iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi. Tushuntirish bilan bir qatorda sinfga to'g'ri kirib kelishga, ularni o'qituvchi va o'quvchilar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlashga mashq qildirib boradi. Shuning bilan birgalikda birinchi sinf o'quvchilarini yuqoridagi jarayonlarga dars vaqtida odatlantirib boradi. Bu jarayonda ularning amalga oshirgan ijobiy ishlari, o'quv ishi natijalari rag'batlantirib borishni taqozo etadi. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi o'quvchilar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo'llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib guruhlarga ajratish mumkin. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o'qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o'zlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.



Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchining ijtimoiy ongiga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me'yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me'yorlar shaxsning e'tiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi. Ushbu guruhga ma'naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko'rsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchida ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qiladi. O'quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarni bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifdagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usini uyg'otishi ko'zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajaja ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

O'rgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O'rgatish o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilganligidir. Mashq qilish o'rgatish bilan yaqin aloqada

bo'ladi. Agar o'rgatib borish negizida bolaning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish o'rgatib borishga suyangan holda ko'p bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazorat qiladi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo'lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda ko'pincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tug'iladi, bunda mustaqil tanlash uchun imkon bo'ladi. Pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar o'z fikri va xulq-atvorini qayta o'zgartirishi lozim bo'lgan sharoit yaratiladi.

Ikkinchi guruh metodlari orasida musobaqa o'quvchilar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sifati hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha sohalarida o'quvchilarning faolligi va ijodkorligini rivojlantirishga, o'quvchilar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Musobaqa to'g'ri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va o'quvchilarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqaning alohida turi bo'yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyushtiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab va h.k.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlari tashabbus va g'ayrat ko'rsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur. Musobaqani rasmiy axborotlar uchun tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo'lib qoladi.

Birinchi va ikkinchi guruh metodlarini o'zaro bog'liq holda qo'llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki o'qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o'quvchi ongi, xulqiga ta'sir etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko'ra olishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda bugungi o'quvchi tarbiya natijasida ertagni komil inson, ya'ni jamiyatning barkamol

a'zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirib borishi lozim.

Xo'sh, inson ongi va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qanday faoliyat darajasiga yetishi kerak?

Inson ongi – uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

4. Tarbiyada ibrat-numana ko'rsatishning tutgan o'rni

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ilgarigi zamonda shunday maqol bor edi: «Domlaning aytganini qil-u, qilganini qilma». Hozir bu maqol eskirdi: o'smir va o'spirinlar ko'pincha ustozlari va kattalarning tashqi yashash tarzidan o'rnak oladilar, ya'ni ular «domlaning qilganini... qilishadi». Bu o'rinda ularning quyidagi haqli e'tirozlarini inobatga olish zarur.: «Nima uchun chekmagin, ichmagin deyishadi-yu, o'zlari chekishadi, ichishadi?», «Nima uchun rost gapirgin deydilar-u, o'zlari yolg'on so'zlaydilar?», «Nima uchun to'g'ri, halol bo'lish kerak deydilar-u, o'zlari pora oladilar?». Agar o'qituvchi va boshqa ana shunday so'zda to'g'ri-yu, amalda noto'g'ri ish tutishsa, shogirdlari qanday qilib uni hurmatlaydi? Undan nimani o'rnak qilib oladilar? Shu ma'noda tarbiyachi har vaqt o'z

so'ziga amal qilishi va so'zining ustidan chiqishi kerak. Ibratning aynan ana shu jihati komil inson tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Ibrat tarbiyasi insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bu ayniqsa, Yunonistonning mashhur mutafakkirlari – Aflotun va Arastuning nomi bilan bog'liq pandnomalaridan keng o'rin olgan. Jumladan, Sharq mamlakatlarida Aflotunning Arastuga, Arastuning Iskandarga nasihati va vasiyatnomalari yaxlit asar sifatida tarqalgan. Arastuning aytishicha, tarbiyachining o'zi tarbiya ko'rgan, insoniy fazilatlarni egallagan bo'lishi darkor. «Shuni bilginki, - deydi Arastu, - ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qilolmaydi. Xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas, va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar sen o'z o'quvchingni tarbiyalamoqchi bo'lsang, avval o'z ruhingni yaxshilashdan boshla. Mabodo o'zgalar aybini bartaraf etmoqni ixtiyor etsang, bundan oldin o'z nafsingni nuqson va illatlardan tozalashing zarur. Ammo ko'zi ojiz bo'lgan kishi qanday qilib ko'rga yo'l ko'rsata oladi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro' va qadr-qimmat ato qila oladimi?».

Bulardan tashqari Sharq mamlakatlarida axloq va ta'lim-tarbiyaga oid «Rushnoinoma», «Qobusnoma» Farididdin Attorning «Pandnoma»si, O'bayd Zakoniyning «Sad pand» kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o'rta asrlarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta'limotlari Al-Kindiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o'rganildi va boyitildi.

Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat-namunaning o'rni beqiyosdir. Bu o'z navbatida Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a'zolarini tayyorlashni kafolotlaydi.

5. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari

Rag'batlantirish metodlari – o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z

faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi. Rag'batlantirish metodlari xilma-xil bo'lib, ular tarkibiga ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofatlash va boshqalar kiradi.

Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldidagi chinakkam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o'rnini hisobga olish va u ketma-ket bo'lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo'shashtirib yuborish, bular o'quvchida man-manlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batni tashkil etishda o'quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o'rne, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

Jazo berish metodlari – bu o'quvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatishi, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyg'otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo'llab-quvvatlashi asosida jazo berish metodlari ham hilma-xil bo'lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish xatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatidan chetlatish va boshqalar kiradi.

Jazo berish ham pedagogik talablarga amal qilish zarur. Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarning aybiga, salbiy xatti-harakatiga qarab berilishi lozim. Jazo berish chog'ida salbiy xatti-harakatning sabablari uning jamoaga yetkazadigan zarari, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Jazo berish o'quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham o'quvchini jismoniy va ruhiy azobga solmasligi, uni tahqirlanmasligi, sha'nini yerga urmasligi, huquqini paymol etmasligi kerak.

Tarbiya metodlari sharoitni, vaqtni, shuningdek, o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq tarbiya metodlari, tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turiga kiradi.

O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali, o'quv qurollari badiiy-ilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televideniye, kompyuter, magnitofon, slaydo, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Tarbiya jarayonining asosini, ijtimoiy hayotining obyektiv talablarini, shaxsning ijtimoiy mohiyatini hamda tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etgani bois tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarni chuqur o'rganishni talab etadi.

2. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq. Tarbiya tamoyillari yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqqan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisidir.

3. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'hshash jihatlariga ko'ra uch guruhga bo'linadi. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Esda saqlab qolish uchun zarur bo'lgan tushunchalar:

Metod – lotincha metodos so'zidan olingan bo'lib, tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot tushunchalarini anglatadi. O'qitish va tarbiyalashning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki yo'llari, uslublari, vositalari majmui tushuniladi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'li tushuniladi

Tarbiya metodlari – tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Rag'batlantirish – talabaning namunali xulqi uchun boshqalarga ibrat qilib ko'rsatish, faxriy yorliqlar bilan taqdirlash, devoriy gazetada talaba to'g'risida kichik ma'lumotnoma berish, uning suratini maxsus doskaga qo'yish, ota-onasining nomiga tashakkurnoma yuborish.

Mashq - bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq atvor qoidalarini bajarishga oatlantirish

Jazolash – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarbiya metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaning qanday metodlari bor?
3. Rag'batlantirish metodi nima va uning turlari mavjud?
4. Jazolash metodi va uning turlarini tushuntirib bering.
5. Tarbiya jarayonida nima uchun metodlar qo'llaniladi?
6. Shaxsga ta'sir etish orqali tarbiyalash metodlari va usullariga qaysilar kiradi?
7. Tarbiya usullari nima?
9. Tarbiya vositalariga nimalar kiradi?
10. Xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiyaning umumiy metodlari qaysilar?
11. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar qaysilar?
12. Mashq va o'rgatish metodlari qanday?

13. Jazolash metodlariga nimalar kiradi?


Mavzularni o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.
4. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. «Ma'rifat gulshani» gazetasi, 6 (11) – 2007 yil.
5. To'raqulov X.A. Kamolot sari. Jizzax, 2007, 181-182 betlar.
6. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2006, 250 bet.
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild, 270 bet.
8. Quronov M. Otalar kitobi.
9. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006, 284 bet.
10. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.

MAVZU: MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA

REJA:

1. Axloq va ma'naviy sifatlar.
2. Shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari.
3. O'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va kamolotida e'tiqod tarbiyasining o'rni.
4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari va vositalari.
5. Axloqiy tarbiya berishning yo'llari.

 **Tayanch ibora va atamalar:** axloq, shaxs ma'naviyati, ma'naviy sifatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviy-axloqiy madaniyat, ma'naviy-axloqiy kamolot, ma'naviy-axloqiy ong, ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish, o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi, ma'naviy tarbiyada e'tiqodning o'rni, moddiy boyliklar, fan, adabiyot, san'at, maorif, din, axloq, odob, xulq, fazilat, xislat, sifat, xatti-harakat, ijobiy xislatlar, salbiy xislatlar, imon, e'tiqod, insoniylik, poklik, halollik, rostgo'ylik, to'g'rilik.

1. Axloq va ma'naviy sifatlar

«Axloq» ijtimoiy tushunchalardan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy xodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruxiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rni belgilanayotgan jarayonda maskur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib hizmat qiladi.

«Axloq» tushunchasi oila fikri asosida tartibga soluvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Qadimdan oq ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va madaniyatshunoslikka oid asrlarda ushbu tushuncha turli ko'lamda ishlatilib kelingan.

Axloq (arabcha xulq-atvor demakdir) – ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi.

Axloq omma faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllari (o'quv, ishlab chiqarish, xalq ananalari) da o'z talablarining asoslanishi amalga oshirilishi va omma fikri asosida tartibga solinishi bilan farq qiladi. Axloq talablari barchaga taalluqli, biroq hych kimning ko'rsatmasi, hych qanday maxsus buyruq asosida bajarilmaydigan, ixtiyoriy amalga oshiriladigan burch shakliga kiradi. Axloq talablarining bajarilishi faqat ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari doirasida yuz beradi.

Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi.

Bir so'z bilan aytganda axloq-jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmuidir.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat va ma'naviyat elementlarining qanchalik mujasmlashganligi bilan belgilanadi.

Keyingi yillarda yaratilgan ilmiy adabiyotlar, chop etilgan ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda «axloq» tushunchasini qo'llash va unga dahldor mavzularni tariflashda «axloq» tushunchasi mustaqil tushuncha sifatida qo'llanilsa, ayrimlarida bevosita «ma'naviy-axloq», «axloqiy kamolot» kabi sinonim yoki muqobil so'zlar tarzida ham qo'llanilmoqda. Zero, axloqsiz, axloqiy talablar hamda ularda ifoda etilgan g'oyalarsiz shaxsning ruhan va jismonan yetukligining mushtarakligi, uyg'unligi bo'lgan ma'naviy komillik shakllanmaydi.

Bizning nazarimizda, shaxs ma'naviyati – uning ongida kechadigan ijobiy mazmunga ega o'y-fikrlar, niyatlar, g'oyalar, nazariya va ta'limotlar mazmunining amaliy faoliyatda namoyon bo'luvchi ruhiy jarayondir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shaxs ma'naviyati asosida ijobiy mazmunga ega bo'lgan o'y-fikrlar, niyatlar, g'oyalar, nazariyalar va ta'limotlar mazmuniga yetishishni e'tiborga olish lozim. Chunki, shaxs ongida hamisha ham ijobiy mazmunga ega fikrlar kechmaydi. Salbiy fikrlarga ega bo'lish esa ma'naviyatsiz, axloqsiz inson qiyofasini ko'rsatuvchi muhim belgidir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirish

asosi hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish jarayoni bo'lib, izchil, uzliksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'naviy-axloqiy bilimlar negizida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlarni qaror toptirish va ma'naviy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan murakkab dinamik jarayon hisoblanadi.

O'quvchi hulqi, xatti-harakatlarida ma'naviy madaniyatlilikning asosiy me'zonlari: insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-muruvvat, imon, ijodkorlik, faollik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholashni talab etadi. Bu talab o'quvchinining vatan, ota-ona, do'stlari, jamoa oldidagi burchiga, vazifalariga, ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan faollik, ijodkorlik xususiyatlariga munosabati orqali amalga oshiriladi.

Buning uchun, eng avvalo, inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va o'rmini aniqlab olmog'i lozim. Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatida tashkil topadi.

Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiy sifatlari majmuidan iborat.

Sifat aloxida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir. Fazilat—alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy-axloqiy sifatlar majmui. Yuqorida keltirilgan barcha ijobiy xislatlar o'quvchi shaxsini ma'naviy-axloqiy darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, Ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1. O'quvchilarga ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumot beriladi.

2. O'quvchilarda ma'naviy axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma'naviy-axloqiy ongini qaror toptirish.
3. O'quvchilarda ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlar (bilimlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehr-muhabbat, vatanga, halqqa muhabbat, ota-ona va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat, burchga sadoqat va hokozolarni) qaror toptirish.
4. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy mazmundagi hulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.
5. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish.

O'quvchilar ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi tarixiy-obe'ktiv sharoitda shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyoti, insonlarning o'zaro hamkorlik, aloqa doiralarning kengayishi takomillashuviga ko'rsatiladigan ta'sirning ijobiy, mo'tadil holatda bo'lishini ta'minlashda ko'rinadi. Ma'naviy-axloqiy sifatning qaror topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro'y beradi:

- o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo'lgan yondashuvda namoyon bo'ladi;

- o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti darajasiga bog'liq;

- o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzluksiz, tizimli ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi natijasida vujudga keladi;

- o'quvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida ijobiy natijalarga olib keladi.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirish quyidagi tamoyillarga muvofiq yo'lga qo'yiladi:

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-g'oyaviy asosga ega ekanligi. Ushbu tamoyil ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiyaning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlashi, milliy mafkura g'oyalarini o'quvchilar o'rtasida targ'ib etishda ifodalanadi.

2. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiyaning izchil, tizimli, uzluksiz tashkil etilishi. Ushbu tamoyil o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy bilimlar berish,

ular da ijtimoiy-amaliy faoliyat ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya ishining tizimlilikini ta'minlash, doimiy tashkil etilishiga erishishda namoyon bo'ladi.

3. Ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya g'oyalarining aniq maqsadga yo'naltirilganligi. O'quvchilar o'rtasida tashkil etilayotgan ma'naviy-axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yishdan ko'zlangan yagona maqsad ular da ma'naviy-axloqiy sifatlar, ma'naviy-axloqiy madaniyatni qaror toptirishdan iboratdir. Mazkur tamoyil ana shu g'oyani yoritishga xizmat qiladi.

4. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga har tomonlama (kompleks) yondashuv. Ushbu tamoyil o'quvchilar ma'naviy – axloqiy madaniyatini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik, darsda, sinfdan va maktabdan tashqari ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish, ma'naviy-axloqiy tarbiyani olib borishda oila, ta'lim muassasalari, mahalla, ijtimoiy tashkilotlar, davlat va jamiyat imkoniyatlaridan biridek samarali foydalanishni nazarda tutadi.

5. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda tarixiy vorislik hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ular da ilgari surilgan g'oyalarga tayanib ish ko'rish. Ushbu tamoyil ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda milliy, tarixiy tajriba, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ularning g'oyalari ta'sir kuchiga tayanib ish ko'rishni o'zida ifoda etadi.

6. Ijtimoiy faoliyatning insonparvarlik va demokratik xususiyatlarga ega ekanligi. Ushbu tamoyil o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda insonparvarlik va demokratik tamoyillarning ustivorligi (o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning qadr-qimmatini yuqori qo'yish, huquq va burchlarini hurmat qilish) ni ifodalaydi.

7. Ma'naviy-axloqiy ong va faoliyat birligi. Ushbu tamoyil ma'naviy-axloqiy bilimlarni o'zlashtirish, bu boradagi faoliyatni tashkil etish, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'naviy-axloqiy bilimlarning amaliyotdagi ijrosini taminlash asosida bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirib borishni anglatadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish – faoliyat jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat ijobiy xislatlarni shakllantirishni, balki salbiy sifatlarni bartaraf etishni, har qanday axloqsiz xatti-harakatlarga qarshi

kurashga o'quvchilarni undashni ham ko'zda tutadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida o'quvchi(tarbiyalanuvchi) ning o'z-o'zini tarbiyalashni kuchaytirishi katta ahamiyatga ega.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida barkamol shaxs tarbiyalanib voyaga yetkaziladi.

2. Shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari

Shaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatining shakllantirishga quyiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu muammoni falsafa etnografiya, etika,estetika fanlari tadqiq etadi.

Madaniyat – arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviyatida qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuidir.

Demak, madaniyat – inson faoliyati mahsuli natijasi sifatida, insonlarning moddiy va ma'naviy faoliyatlari jarayonida vujudga keladi.

Madaniyat jamiyat taraqqiyoti darajasini xarakterlovchi, ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida mujassam bo'ladigan tizim bo'lib, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy mazmunini tashkil etadi. Bundan madaniyat shaxs va uning faoliyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirga doir qonuniyatlar, shu jumladan, shaxs va jamiyatning borliqqa bo'lgan ma'naviy munosabatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, shaxsning talabi, qiziqishga mos ravishda madaniy faoliyatini tashkil qilish yo'llari, ma'naviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari tizimi, shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va ma'naviy madaniyatni shakllantirish qonuniyatlari majmuidan iborat degan xulosa kelib chiqadi.

Madaniyat shaxs kamolotiga moddiy (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar) va ma'naviy (fan, adabiyot, san'at, maorif, din, umuminsoniy va milliy ma'naviy-ruhiy qadriyatlar) jihatdan ta'sir etadi. Moddiy va ma'naviy madaniyat inson ongi va faoliyatidan tashqari yaratilmaydi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi.

Inson biron moddiy boylik yaratar ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim-tarbiyaviy natijasini amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi.

Shaxs tashqi olam, voqeya va hodisalarni aql, idrok ruhiy holat, ichki kayfiyatlar orqali qabul qilib olishi jarayonini ma'naviy madaniyati tashkil topadi. Yuksak ma'naviy madaniyatli insonda vatanga muhabbat, samimiy do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e'tiqod, iymon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar mujassamlashadi. Uning sifat darajasi kishilarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga xalqning ma'naviy merosiga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning negizi hisoblangan umuminsoniy va milliy qadriyatlar shaxsning ijtimoiy tuzumi ustqurmalariga munosabati, turli ma'rifiy-madaniy g'oyalar, tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar tizimining mahsulidir. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning mohiyatini namoyon etuvchi obyekt shaxs hisoblanadi.

Shaxs sifatida shakllanadigan o'quvchiing ma'naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati katta. Axloqiy madaniyatga axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlarini boshqarish tizimi kiradi. Axloqiy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyat davomida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy madaniyatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida ma'naviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda o'quvchi ongi va hulqiga ta'sir etadi.

Axloqiy ong axloqiy madaniyatning negizida tashkil etadi. Axloqiy ong ijobiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Uning mezoni axloqiy bilim axloq normalari axloqiy tafakkur hisoblanadi. O'quvchinig axloqiy ongi uning xulq-atvorida mehnatsevarlik vatanparvarlik va boshqa yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni namoyon etadi. Shuning uchun axloqiy madaniyatning muhim vazifalaridan biri axloqiy ongni yuqori saviyaga ko'tarishidir. Axloqiy ongning yetukligiga erishish uzoq davom etadigan va murakkab

jarayon bo'lib, insoniyat qo'lga kiritgan barcha axloqiy-ma'naviy yutuqlarni o'zlashtirish va shu bilan bir qatorda muayyan sharoit taqozo etgan muammolarni bartaraf etish jarayonida amalga oshadi.

Bundan tashqarii shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish jamiyat talabi va shu jamiyatda yashayotgan odamlarning mazkur axloq normalariga ehtiyoji qiziqishi asosida ma'naviy tarbiyaning maqsad va vazifalari belgilanadi.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi ta'lim tarbiya ishini tashkil etish ta'lim muassasi pedagogik jamoa umumiy ishining tarkibiy qismi bo'lib, ularni o'tkazishda maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi a'zolari, ota-onalar qo'mitasi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari, shuningdek, jamoa tashkilotlari, hodimlari ham ishtirok etadi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy axloqiy-tarbiyani yo'lga qo'yishning quydagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko'riklar, konfrensiya, bahs-munozara va boshqalar.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o'z o'rni va ahamiyatiga ega. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning qamrovi keng, ularni qanday shakl va uslubda o'tkazilishi mutaxassis-o'qituvchining tajribasi, mahorati hamda o'quv muassasi rahbariyati, jamoa tajribasi, fan o'qituvchilarining tashabuslarini qo'llab-quvatlashi, ularga tashkiliy jihatdan yordam ko'rsatish, shu bilan birga o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va ijtimoiy faolliklariga bog'liq.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi tadbirlarni o'tkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi ko'zlangan asosiy maqsadga hizmat qilmog'i kerak.

3. O'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va kamolotida e'tiqod tarbiyasining o'rni

O'zida yuksak fazilat ma'naviy-axloqiy poklik va insoniy kamolot kabi xislatlarni bir-biri bilan uyg'unlashtiradigan shaxs tarbiyasi ta'lim-tarbiya tizimining bosh masalasi hisoblanadi.

Inson tabiatda dunyoga kelib jamiyatda kamol topar ekan tarbiyaning turli vositalaridan foydalanadi. Ma'naviyat tarbiyasidagi e'tiqod

tushunchasini ana shunday tarbiya vositalaridan deb ko'rsatish mumkin. Buning sababi o'quvchi yoshlar kimlargadir taqlid qilgisi keladi. O'z ko'ngliga o'tiradigan dovyurak o'ktam mehnatga ilg'or kishilarda tarixiy shaxslarga badiiy asar qahramonlariga e'tiqod qo'yadilar. Shunga ko'ra tarbiya vositasi bo'lgan namuna kishilarning ijobiy (ba'zan o'ta salbiy) xatti-harakatlari va ijtimoiy foydali faoliyatning tarbiyalanuvchilar ongi va xatti-harakatlariga ko'rsatadigan ta'siri deb tushungan holda o'qituvchilar o'z tarbiya rejalarini boyitib borishlari kerak.

Chunki har bir fan o'qituvchisi doimo uchta vazifani: ta'lim va tarbiya berish, ularni kamol toptirish vazifalarini hal etishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga o'quvchilarning tarbiyasi va kamoloti ta'lim jarayonida amalga oshirilishi rejalashtiriladi. Mazkur rejalashtirishlarda albatta e'tiqod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bugungi yoshlarda zamonamizning eng mashhur (ijobiy ma'noda) kishilarga o'xshashlik, namunaning tarbiyaviy kuchi o'quvchilarning (bolalarning) taqlid qilishga moyilligiga asoslangandir. Yoshlar ko'pincha ota-onalariga, ma'lum bir ijobiy yutuqlarga erishgan qarindoshlariga, o'qituvchilariga va mashhur qahramonlarga taqlid qiladi.

Turli yoshdagi bolalarga taqlid qilishiga moyillik turlicha bo'ladi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar ijobiy namunaga ham, salbiy namunaga ham baravar taqlid qilaveradi. Buning sababi ularning turmush tajribasining hali juda kamligi, irodi kuchining nihoyatda zaifligi hissiyotlarning aql idrokidan ustun turishidadir. Ularda tahlil qilish va harakatlarida tanqidiy ko'z bilan qarab baho berish xislatlari hali shakllanmagan bo'ladi.

Bolalar ulg'ayib borgan sari tevarak atrofidagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlariga taboro tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo'ladi. Shu yoshdagi bolalar o'z nuqtai nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarni o'zlari uchun namuna deb biladilar va ularga e'tiqod qo'yadilar.

Ma'lumki, tarbiya vositasi bo'lgan namuna mohiyat e'tibori bilan e'tiqodga yaqin turadi. E'tiqod tushunchasi yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Bunda tarbiyachi o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib ularning ongiga, hissiyotlariga ta'sir qiladi. Shu yo'l

bilan yoshlarda ijobiy axloqiy sifatlar tarkib topa boradi hamda mustahkamlanadi ulardagi salbiy hulq odatlari yo'qotiladi.

O'quvchilarda e'tiqod hosil qilish jarayonida etikaga oid tushunchalar ham tarkib topib boradi. O'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga tayyorlash faqat hayotiy ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat bo'lib qolmay, ayni chog'da yoshlarda kelajak jamiyat kishisi uchun zarur bo'lgan axloqiy sifatlarni tarbiyalash hamdir.

E'tiqod tarbiyasini amalga oshirishda har bir o'quvchining qiziqish doirasini, maylini, fikr-o'yini diqqat bilan o'rganish talab etiladi.

O'quvchilarda tarkib toptiriladigan ma'naviy-axloqiy sifatlar axloqiy ong bilan xatti-harakat o'rtasida birlik bo'lishini taqozo qiladi. Buning ma'nosi shuki, axloqiy-ma'naviy tushunchalar ularning xatti-harakatlarida ham ular qatnashgan jamoadagi o'zaro munosabatlarda ham qaror topmog'i lozim.

Bir so'z bilan aytganda, e'tiqod tarbiyasi barkamol shaxsni tarbiyalashdagi asosiy omillardan biri bo'lib shaxsni har ttomonlama garmonik tarbiyalashga zamin yaratadi. Biroq insonni kamolga yetkazishda har bir shaxsga o'ziga xos munosabatda bo'lish ta'lim-tarbiyaning asosiy tamoyillari ekanligini unutmasligimiz lozim.

4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari va vositalari

Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchi-yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishida mustahkam asosdir.

Ta'lim oluvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'ziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavjud bo'lib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos ham bo'ladi. O'quvchi-yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning quyidagicha metod, shakl va vositalari bor. Ular haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada pedagogikaning umumiy metod va vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya talabaga o'quv materialining mazmunini, vazifa yoki topshiriqlarni, faoliyat usullari hamda uslublarini tanlash imtiyozini beradi. Tanlash imkoniyati talabani qaror qabul qilish, mustaqil izlanish va javobgarlikni his qilishga undaydi. Shu bois o'quv faoliyatining muqobil modellarini ishlab chiqish va

ularni talabaga taklif etish maqsadga muvofiq. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash shakllari quyidagicha tasniflanadi:

I. Suhbatlar. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar tashkil etish o'quvchilarning erkin, mustaqil fikrlashini yuksaltiradi, tafakkurini boyitadi, o'qituvchi bilan hamkorligini mustahkamlaydi. Tarbiyaviy ishlarning barcha yo'nalishlari bo'yicha suhbatlar tashkil etish mumkin.

Suhbatlar qiziqarli va jonli o'tishi uchun uni tashkil qilishdan bir necha kun oldin mavzu o'quvchilarga e'lon qilinadi. Suhbatlar davomida mavzuni yorituvchi multimedia vositalaridan foydalaniladi. Mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalaridan kelib chiqib ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Vatanparvarlik tarbiyasi:“O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish – dolzarb vazifa”, “Vatan tuyg'usi – muqaddas tuyg'u”, “Mustaqillik nashidalari”, “Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari”, “Mustaqil O'zbekiston jahon nigohida”, “O'zbekistonning tashqi siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari”, “Fidokor yoshlar qanday bo'lishi kerak?” va boshqalar.

2. Ma'naviy-axloqiy sifatlarni yuksaltirish tarbiyasi:“Talabaning muomala madaniyati”, “Talabaning ma'naviy-axloqiy qiyofasiga qo'yiladigan talablar”, “Shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari”, “Talabaning tashqi ko'rinishi va uning ichki dunyosi”, “Kitoblar – bilim va ma'naviyat manbai”, “O'quvchilar o'rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish” va boshqalar.

3. Milliy merosimizni ulug'lash tarbiyasi:“Ajdodlar merosi – ma'naviyatimiz sarchashmalari”, “Amir Temur yoshlar kamoloti haqida”; “Yuksak madaniyat va ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining poydevori”, “Tarix – millat ma'naviyatining negizi” va boshqalar.

4. Oila tarbiyasi:“Oilada farzand tarbiyasi”, “Oilada ota-onaning o'rni”, “Farzandning ota-ona oldidagi burchlari”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “Bir bolaga etti mahalla ota-ona” va boshqalar.

5. Aqliy tarbiya:“Yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati”, “Zamonaviy ilm-fan yutuqlari”, “XXI asr ilm-fani: muammolar va yechimlar”, “Innovatsion g'oya – taraqqiyot kaliti” va boshqalar.

II. Uchrashuvlar. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan yoshi ulug' shaxslar, o'z kasbining etuk mutaxassislari, tajribali pedagoglar bilan uchrashuvlar tashkil etish ham ijobiy samaralar beradi. “14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” mavzusida O'zbekiston qurolli kuchlarining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etiladi. “1 mart – giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi kurash kuni”, “15-may – Xalqaro oila kuni”, “1 oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni”, “21 oktyabr – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun”, “17 noyabr – Xalqaro talabalar kuni”, “1 dekabr – Xalqaro OITS (SPID)ga qarshi kurash kuni”, “8 dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni” kabi muhim sanalar va bayramlarga oid soha mutaxassislari hamda tajribali pedagog va faxriylar bilan uchrashuvlar uyushtiriladi. Uchrashuvlarni o'tkazishga alohida tayyorgarlik ko'rib, o'quvchilar tomonidan mavzu bo'yicha sohani yorituvchi slaydlar, videoroliklar tayyorlanadi.

III. Bahs-munozaralar uyushtirish. Talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-axloqiy mavzulardagi munozaralar o'quvchilarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to'g'ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o'rgatish hamda e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladi. Munozara o'y-fikrlarni tartibga soladi, mustaqil fikrlashga, bahs yuritishga, suhbatdoshini tinglashga, o'z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda hikoya qilishga, ayni chog'da, o'z xatolarini tan olishga o'rgatadi. O'quvchilar o'rtasida “Ma'naviy-axloqiy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining o'rnini va roli”, “Mustaqillik va ta'lim-tarbiya”, “Yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi”, “Yoshlarning kitobxonlikka munosabati”, “Zamonaviy urf-odatlarida madaniyat va ma'naviyat”, “Tabiat va inson”, “Sharq mutafakkirlari axloqiy qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati” mavzularida bahs-munozaralar olib boriladi.

IV. Tarbiyaviy tadbirlar. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda tarixiy shaxslarning tavallud kunlari, bayramlar va muhim sanalarga bag'ishlab “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi”, “Ona tili – millat ruhi”, “Biz OITSGa

qarshimiz!”, “Navro’z – yasharish bayrami”, “Nazm gulshanidagi yog’du”, “Ona – ulug’ zot”, “Xotira muqaddas”, “Mustaqil yurtimning millat otasi”, “Mehnati elda aziz ustozim”, “Jonimdin o’zga yori vafodor topmadim”, “Fidoying bo’lgaymiz seni – O’zbekiston!” mavzularida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etiladi. Bu orqali ularning ma’naviyatini yuksaltirish hamda ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish ko’zda tutiladi.

V. Ijodiy ishlar tanlovi. O’quvchilar o’rtasida turli mavzularda ijodiy ishlar tanlovi o’tkaziladi. Mazkur tanlovlar Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning birinchisi - yoshlarning musiqa, rassomlik, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishini oshirish, o’z qobiliyatlarini namoyon qilishiga ko’maklashish maqsadida tashkil etilib, unda o’quvchilar o’zlarining ijod namunalari (rasm, devoriy gazeta, she’r, qo’shiq, insho) bilan tasavvurlaridagi ideal o’qituvchining ma’naviy-axloqiy qiyofasini gavdalantirib berdilar.

Ma’naviy-axloqiy xulq, bu boradagi hayotiy tajribalarni hosil qilishga ko’maklashuvchi metodlar:

1. Rasmiy kasbiy o’yinlar. Bunda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid ma’lumotlar to’planadi va ayniqsa buyuk allomalarning faoliyati hamda qarashlari, asarlari asosidagi axloq kategoriyalari va ularning mazmun-mohiyatini ochib berishga oid o’yinlarni («Aql-zakovat», «Oltin toj», «O’yla, izla, top», «Yangi fikr», «Pedagog kim», «Tarbiyachilarmi yoki murabbiy» va shu kabilar uyushtirish.

2. Ishchanlik o’yinlari. Bunda «Aqlli odam bo’lish yaxshimi yoki dono», «Olim kimu fozil kim?» va h.k. ko’rinishdagi o’yinlar orqali o’quvchilarga axloqiy tarbiya berish amalga oshiriladi.

3. «Aqliy hujum». Bunda o’quvchilar ongida ezgulikni va adolatni shakllantirishga oid trening darslarini tashkil etish nazarda tutiladi.

4. Fikr va g’oyalarni tizimlashtirish. Bunda fikrlar va g’oyalar kurashi asosida jaholatga qarshi kurashda ma’rifatga va ma’naviyatga tayanish lozimligi ta’kidlanadi.


5. Bahs-munozara. Bunda «Oddiy haqiqatlar», «Siz intellektual salohiyatlimisiz?», «Barkamol avlod kim?», «Kamil inson kim?», «Donishmandlik qanday shaxslarga xos?» va shu kabi mavzular

uyushtiriladi. Ularda o'quvchi-yoshlarning axloq kategoriyalari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish nazarda tutiladi.

6. Musobaqa. Bunda insonning individdan shaxs darajasiga yuksalishi, aqlli odamning dono darajasigacha yuksalishi va hokazo insonning donishmand darajasigacha aqliy kamoloti bosqichlariga oid guruhlar orasidagi musobaqalar tashkil etiladi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'quvchilar ongida ma'naviy yetuk shaxs modelini yaratishdan iborat bo'ladi.

7. Devoriy gazeta. Bunda beriladigan ma'lumotlar o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid materiallardan iborat bo'ladi va ular iloji boricha darslik va o'quv qo'llanmalaridagi materiallarni boyitishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

8. Ma'naviy-axloqiy mavzularga oid albom va jurnal tayyorlash. Bunda ma'naviyatimiz buyuk timsollarining muayyan bir kishisiga yoki bir yo'nalishdagi ulug' insonlar fikr, qarash, g'oya va ta'limotlariga asoslangan holda jurnal va albomlar tayyorlash e'tiborga olinadi.



1-shakl. Ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalaniladigan vositalar

9. Axloqiy-muammoli vaziyatlar tahlili. Bunda bunyodkor va vayronkor g'oyalarning odamga, oilaga, jamoaga va davlatga turli xil ta'sirlari to'g'risidagi muammoli vaziyatlar o'quvchilar ishtirokida tahlil etiladi va uning natijasida hosil bo'ladigan xulosalarning yoshlarga milliy-ma'naviy tarbiya berishdagi ahamiyati ham o'rganiladi.

Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari va vositalari hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalanish barkamol avlodni shakllantirishda mustahkam asoslardan biri hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ko'rgazmali qurollar, tasviriy san'at asarlari, san'at turlari, badiiy adabiyot, ibrat-namuna, mehnat, pedagogik qarashlar, xalq og'zaki ijodi, tabiat, ommaviy axborot vositalari, oilaviy an'analar, so'z-nutq, multimedia vositalalaridan unumli foydalanish ijobiy samara beradi.

6. Axloqiy tarbiya berishning yo'llari

Insonning axloqiy tarbiyalanganligi uning tevarak-atrofdagi munosabatlaridan namoyon bo'ladi. U insonning hislarida, kechinmalarida ifodalanadi hamda xulq-atvorida, xatti-harakatida ko'rinadi. Axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsni axloqiy jihatdan yetuk qilib shakllantirishdir.

Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridir.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, o'quvchilarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiya tarbiyalanuvchining yoshi va uning to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni (oilasi, o'rtoqlar va do'stlar muhiti) ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo'l va usullari o'quvchilarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda alohida xususiyatga ega. Axloqiy tasavvurlar, qarash, mulohaza, baho

berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosida axloqiy e'tiqodni yuksaltirishga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

- o'quvchilarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi;

- turli manbaalarda axloq to'g'risida olingan bilimlarni to'g'rilaydi;

- shaxsning o'zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi.

Axloqiy bilim berishni tashkil qilishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning shaxsiy axloqiy tajribalarini, axloqiy me'yorlar to'g'risidagi xabardorlik darajasini, axloq sohasidagi o'zlashtirgan bilimlarning axloqiy talablari bilan munosabatini hisobga olish zarur. Axloqiy bilim, asosan axloq to'g'risidagi suhbatlar, ma'ruzalar mavzui, kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, o'quvchilar konferensiyalari va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

Shaxsning axloqiy rivojlanishi axloqiy ehtiyojlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi: mehnatga, muloqotga, madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishga, bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va boshqalarga ehtiyoj izlaydi. Bu ehtiyojlar o'quvchilar faoliyati va munosabatlarining real tajribasida rivojlanadi. Ko'p qirrali faoliyat jarayonida xatti-harakatning ijtimoiy foydali ko'nikmalari, axloqiy odatlar, barqaror munosabatlar shakllanadi. Axloqiy tajriba to'plash uchun faqat baholash va xulqning odatdagi formalarini talab qiluvchi faktlargina katta ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Hodisalarning xilma-xilligi, har birining ko'p qirraliligi, yoshi, lavozimi, ijtimoiy holati, mijozi, hayotiy biografiyasi turlicha bo'lgan kishilarning ishidagi, fikr-mulohazalaridagi, xatti-harakatidagi chalkashliklar va ba'zan ziddiyatlar ham o'quvchi-yoshlarga turlicha murakkab bo'lgan ko'plab yangi vazifalar yuklaydi. Ularni tahlil qilish, har birining yechimini izlash, topilmagan yo'lning to'g'riligini tekshirib ko'rish axloqiy tajriba to'plashning muhim yo'lidir.

Esda saqlab qolish uchun zarur bo'lgan tushunchalar:

Metod (yunoncha – aynan nrmagadir yo'l) – maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Yunoncha so'z bo'lib, yo'l, axloq ma'nolarini bildiradi.

Ma'naviy axloqiy tarbiya metodlari – ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini amalga oshirishda qo'llaniladigan usul va vositalar majmui.

Intizom – ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me'yorlariga nisbatan ongli yondashuv, ularga to'la amal qilish demakdir.

Ongli intizom – shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda huquqiy me'yorlar talablari asosida aqliy quvvatga tayangan holda tashkil etish ko'rsatkichidir.

Axloq normasi – kishilarning xulq, fe'l-atvorlarini tartibga soluvchi axloqiy talablar mezoni demakdir.

Odob - har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish turishida o'zini tuga bilishidir.

Xulq - odobning ichki tuyiq ko'nikmaga aylangan ko'rinishi.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui.

Madaniyat - jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida foydalangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Ma'naviyat - inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy-axloqiy sifatlar majmui.

Axloqiy tarbiya - O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'naviy-axloqiy bilimlar negizida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, axloqiy sifatlarni qaror toptirishga yo'naltirilgan murakkab dinamik jarayon.

☑ Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ma'naviy-axloqiy metodlarni aytib bering va ularning vazifasini tushuntiring.

2. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlarning mazmun-mohiyati nimadan iborat?

3. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada namuna ko'rsatish metodining mazmunini nima tashkil etadi?


4. Bahs-munozara uyushtirish deganda nimani tushunasiz?

5. Ma'naviy-axloqiy xulqning mazmuni nimadan iborat?

6. Ma'naviy-axloqiy xulqni hosil qilishda ko'maklashuvchi metodlarni tushuntirib bering.

9. Axloqiy tarbiya berish yo'llari deganda nimani tushunasiz?

10. Axloqiy tarbiyaning vazifalarini tushuntirib bering.
11. Odob so'zi nimani anglatadi?
12. Xulq nima?


 **Mavzularni o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.
3. Jo'rayev R.X. Jaholatga qarshi ma'rifat //J. Xalq ta'limi.– T.: 2004.- №3. – B. 9-13.
4. Ibragimova G., To'raqulov X.A., Hoshimxonov M., Usmonov N., G'oziyev S. Nur sharqdandur.-T.:Yangi asr avlodi, 2003.–252 b.
5. Ibragimova G.,To'raqulov X.A., Alibekova R. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha yordamchi uslubiy qo'llanma. - T.: Cho'lpon, 2003. - 128 b.
6. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. –T.: O'zbekiston, 1996. – 17-18 betlar.
7. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) //To'plovchi va mas'ul muharrir: M. M. Xayrullayev. - To'ldirilgan qayta nashr. - T. "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri", 2001. - 408 b.
8. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.

MAVZU: MAKTABDAGI TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMIDA SINF RAHBARINING FAOLIYATI

REJA:


- 1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining tutgan o‘rni.**
- 2. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining burchlari.**
- 3. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining vazifalari.**

 **Tayanch ibora va atamalar:** tarbiya, tarbiyachi, tarbiyaning mazmun-mohiyati, sinf rahbari, tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati, o‘quvchi, tarbiyaviy ish, jarayon, maktab, sinf, o‘quvchi, sinf rahbari, burch, vazifa, tashkil qilish, bog‘lash, hamkorlik, faollik, yondashuv, talab.

1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining tutgan o‘rni.

Umumta’lim maktablarida tarbiya jarayonini oqilona boshqarish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bunda sinf rahbari muhim o‘rin tutadi, va uning tarbiyaviy ishlardagi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Ichki tartib to‘g‘risidagi Nizom” kabi bir qator ta’limga oid meyoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Sinf rahbarining asosiy funksiyasi o‘ziga biriktirilgan sinfda barcha tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish, yo‘naltirish va muvofiqlashtirib borishdan iborat. Sinf rahbari o‘z faoliyatida o‘z sinfini va alohida-alohida har qaysi o‘quvchini o‘rganishdan boshlaydi. Ma’naviyati boy bo‘lgan sinf rahbari o‘quvchilar bilan alohida-alohida ishlashni amalga oshirishi, o‘quvchilarga o‘z ta’siri, metodlarini mohirlik bilan qo‘llashi kerak. Sinf rahbari ko‘rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtlaridan foydalanish va bolalar ijodiy qobiliyatini o‘stirishda, ularni har tomonlama kamol toptirishda yordam beradi. U bu funksiyani bajarishda o‘quvchilar bilan individual va jamoaviy munosabatga kirishadi. Shu ma’noda quyidagi modelga diqqat qiling:



Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining tutgan o‘rni.

Bunda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Tashkillashtirish:

- sinfda maqsadli tarbiyani yo‘lga qo‘yadi;
- tarbiyaviy ishlar rejasi va dasturini tuzadi, amalga oshiradi;
- tarbiyaviy ishlarni boholab boradi;
- tarbiyaviy ishlarga oid muommolarni hal qiladi.

2. Yo‘naltirish:

- o‘quvchilar va maktab jamoasini tarbiyaviy ishlarga eng muhim belgilaydi;
- sinfda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ishtirokchilarining ahilligi va birligini ta‘minlab beradi;
- tarbiyaviy ishlarni takomillashtirib borish choralari ko‘radi.

3. Muvofiqlashtirish:

- sinfda fanlar o‘qituvchilari tomonidan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtiradi;
- maktab direktorining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari tashkilot va “Kamalak” bolalar tashkiloti, yoshlar ittifoqi, ota-onalar qo‘mitalarining tarbiyaviy ishlardagi hamkorligini ta‘minlaydi;

- tarbiyaviy ishlar monitoringini olib boradi;
- sinf tarbiyaviy ishlarining istiqbollari mo'ljallaydi.

Zero, sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarda tutgan o'rnini muhim ahamiyatga ega. Bunda sinf rahbari faoliyatida quyidagilar birlamchi o'rin tutishini qayd etish lozim:

- a) tarbiyaviy ishlarni kengaytirib borish;
- b) tarbiyaviy ishlar metodlarini eng maqbullarini tanlay olish;
- v) tarbiyaviy ishlar shakllarining to'g'risini belgilash.

Malakali va mahoratga ega sinf rahbari tarbiyaviy ishlar quyidagi talablarga javob beradi:

- yuqori darajada ma'naviyatlilik va yetuk darajada pedagogik-psixologik tayyorgarlik;
- milliy g'oya, taraqqiyot va istiqbolga sadoqatli bo'lish;
- ahloqiy yetuklik, huquqiy faollik va ijtimoiy faollikda o'quvchilar va o'zgalarga ibrat ko'rsatish;
- tarbiyaviy ishlarda oqil pedagog va nafis psixolog sifatida ish ko'rish.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlardagi mavqeyi va nufuzi tarbiya metodlarini yaxshi bilishi bilan ham belgilanadi. Bunday metodlarning eng asosiylar quyidagilardir:

1) Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar:

- suhbat;
- mashg'ulot;
- bahs;
- ibrat.

2) Axloqiy faoliyat va xulq-atvor fazilatlarini shakllantirish metodlari:

- pedagogik talab;
- ijtimoiy fikr;
- o'zlashtirish;
- boshqarish;
- tarbiyaviy vaziyat yaratish;


3) Faoliyat samaradorligiga erishish metodlari:

- o'rganish;
- odatlanish;

- musobaqa;
- ragʻbatlantirish.

2. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining burchi.

Burch – bu ahloqning asosiy mezonlaridan biri boʻlib, u “har bir kishining oʻz vazifasini toʻliq bajarishi va odamlarga toʻgʻri munosabatda boʻlish kabi fazilatlarni ifodalaydi”. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar jarayonidagi burchi tarbiyaviy ishlarni maʼsuliyat, onglilik va vijdon bilan tashkil qilish hamda olib borishdan iboratdir. Mazkur masalada quyidagi variantga eʼtibor bering:



Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining burchi.

Bu masalada quyidagilarga eʼtibor berish maqsadga muvofiq:

1. Tarbiyaviy maʼsuliyatlik. Sinf rahbari tarbiyaviy ishlar uchun eng maʼsul shaxsdir. Bunda u gʻoyaviy, maʼnaviy, ahloqiy, jismoniy, estetik kabi shakllanishlarga yoʻnaltirilgan tarbiyaviy ishlarni vijdonan, halol va ongli ravishda tashkil qilish kerak.

2. Malakaviy mahoratlik. Sinf rahbari sinfda tashkil qilinadigan tarbiyaviy ishlarni yuksak va mahorat bilan yoʻlga qoʻyishi shart. Aks holda sinfda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar kutilgan darajada kechmaydi.

3. Ijtimoiy javobgarlik. Sinf rahbari tarbiyaviy ishlar uchun jamiyat va shaxs oldida javobgar hisoblanadi. Chunki unga bu faoliyat ishonib topshirilgan.

Zero, sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar jarayonidagi burchi Ma'suliyat, Malaka, va Javobgarlik bilan belgilanadi. Negaki kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi ko'p hollarda sinf rahbarini barchadan ko'ra eng yaqin do'sti, sirdoshi va maslahatchisi deb biladi. Bunday ishonch sinf rahbaridan tarbiyaviy ishlar jarayonini oqilona tashkil etish va olib borishni tqozo etadi. Shu ma'noda sinf rahbari o'z burchini bajarish jarayonida:

1) bor imkoniyatlar va vositalar yordamida o'qituvchilar va maktab jamoasi bilan sinfda olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlarda hamkorlik qiladi.

2) o'quvchilar jamoasini shakllantirish va bu jamoani tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi;

3) o'qituvchilar va o'quvchilarning hamkorligini ta'minlaydi;

4) o'qituvchilar, maktab jamoasi va mutaxassislar ishtirokidasinf dan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boradi;

5) sinfning tashqi olam bilan ko'p tamonlama aloqalarini yo'lga qo'yadi va tartibga solib turadi.

Bularning barchasi sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar jarayonidagi burchi hisoblanadi. Bu hol sinf rahbarini tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi va o'quvchilar Ustozi sifatida namoyon qiladi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonidagi sinf rahbari burchining mazmuni ma'naviy tarbiya ishlarini tashkil qilish bilan bog'liq. Unga ko'ra, umumta'lim maktabi o'quvchilari "kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli yashash" uchun layoqatli bo'lib voyaga yetishlari kerak. Buning uchun sinf rahbarining hushyorlik, sezgirlik, qatiyatlik va ma'suliyatlik tamoyillariga asosan tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yilishi taqozo etiladi.

Qachonki tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbari o'z burchini bajarsa, kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z sinfi uchun o'qituvchi va Ustoz, yuqori sinf rahbarlari o'quvchilar uchun Ustoz va o'qituvchi hisoblanadi. Sinf rahbari tarbiyaviy ishlarda o'z burchini bajarmasa, sinfda ma'naviy muhit ayniydi, ta'lim

samaradorligi susayadi va o‘quvchilarning ahloqiy rivojlanishiga darz ketadi.

3. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining vazifalari.

Umumta’lim maktablarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida keng ko‘lamli xususiyatga ega. Lekin ulardan g‘oyaviy, ma’naviy- ahloqiy, jismoniy, estetik, fuqorolik kabi tarbiyaviy ishlar eng asosiylari hisoblanadi. Shu ma’noda tarbiyaviy ishlar jarayonidagi sinf rahbarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tarbiya ishlarini insonparvar, demokratik va dunyoviy xarakterda yo‘lga qo‘yish;

- tarbiyaviy ishlar rejalari va dasturlarini davlat ta’lim standartlariga mos ravishda yagona va tabaqalashtirilgan tarzda ishlab chiqish;

- o‘quvchilarning layoqati, qobiliyati va istedodini o‘stirishni tashkil qilish;

- tarbiyaviy ishlarni maqsad-muddaoli, rejali va tizimli yo‘lga qo‘yish;

- o‘qituvchilar, maktab jamoasi, ota-onalar qo‘mitasi, “Kamalak“ bolalar tashkiloti va Yoshlar ittifoqi yetakchilari, mahalla faollari hamda keng jamoatchilikning tarbiyaviy ishlardagi hamkorligini uyushtirish;

- o‘quvchilarda g‘oyaviy sobitlik, ma’naviy barkamollik, ahloqiy yetuklik, jismoniy sog‘lomlik ko‘nikmalarini voyaga yetkazishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlarni olib borish.

Zero, sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar jarayonidagi vazifalari eng muhim muammolarni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Bu vazifalar hozirgi kunda “mafkuraviy, g‘oyaviy va informasion kurashlar kuchayib borayotganligi” [5,3] Bilan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 25 avgustdagi PQ -451-sonli “ Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi” Qarorga binoan sinf rahbari tarbiyaviy ishlar jarayonidagi vazifalarning ijtimoiy ahamiyatini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Hozirgi murakkab davrda sinf ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarni zamon talablari asosida tashkil qilish;

2. O‘quvchilarni turli g‘oyaviy, ma‘naviy, mafkuraviy va ahloqiy hurujlardan himoya qilish;

3. O‘quvchilarning hayotga ongli va mustahkam pozitsiyali munosabatini shakllantirish;

4. O‘quvchilarning yor atrofda yuz berayotgan voqyealarga dahldorlik hissini tarkib toptirish.

Shunday qilib tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining vazifalari bo‘lishi muhim ijtimoiy va pedagogik ahamiyatga ega. Buning sinf rahbari tarbiyaviy inkor jarayonining tashkil qilishda aniq rejani chorarakning muddati mos ravishda quyidagi shaklda tuzish mumkin:

Sinf bilan ishlash vazifalari	Ishlar mazmuni (bo‘limlar asosida)	O‘tkazish muddati	Tadbir ishtirokchilari	Kutilgan yoki olingan natijalar
1	2	3	4	5

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish shakli.

Zero, tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbari muhim o‘rin tutadi. Bu masalada u aniq burch va vazifalarga ega.

Talabalar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar jarayonidagi tutgan o‘rni , burchi va vazifalari bo‘yicha ko‘nikma, malaka va tajriba hosil qilishlari kerak. Shunda bu borada erishilgan natijalari kutilgan darajada bo‘ladi.

Sinf rahbari hozirgi kunda asosiy tarbiyachi hisoblanadi. Shu sababli uning maqomi bugungi kunda quyidagilardan iborat:

- 1) Sinfdagi tarbiyaviy ishlar uchun asosiy shaxs bo‘lishi;
- 2) pedagogik jamoa va ota-onalarga nisbatan tarbiyaviy ishlarda mutloq-vakolatga ega bo‘lishi;
- 3) sinfdagi tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta‘minlashi;
- 4) davlat va nodavlat tashkilotlarida bolalarning qonuniy vakili sifatida ishtirok etishi va h.k.

Demokratik jamiyat sharoitida sinf rahbarining ijtimoiy nufuzi yuqori bo‘ladi. Bu bir necha omillar bilan belgilanadi:

- bolani har xil salbiy ta‘sir va holatlardan muhofaza qilish;

- bola huquqlarini ro‘yobga chiqarish;
- bolani ijtimoiy himoyalash;
- bola tarbiyasi monitoringini amalga oshirish.

Hozirgi tezkor davrda ota-ona yoki oilada bola tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar bola tarbiyasi ishiga ishtiroksi sifatida qatnashmoqda, xolos. Sinf rahbari esa bola tarbiyasida ilmiy, ijtimoiy, g‘oyaviy, siyosiy talab va ehtiyojlar bilan ishtirok etadi. Buning uchun sinf rahbari quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim:

- o‘z kasbining ustasi bo‘lishi;
- bolani sevishi va bola huquqlarini bilishi;
- tarbiya ishining asoslari, metodlari va texnologiyalaridan yetarli darajada xabardor bo‘lishi;
- ijodkor, izlanuvchan va namunali bo‘lishi.

Shunday qilib sinf rahbari tarbiyaviy ishlar sohasida keng qamrovli ishlarni olib boradi va o‘z sinf o‘quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashda asosiy shaxs hisoblanadi.

Esda saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan tushunchalar:

Tarbiya – inson shaxsi ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan say – harakatlar tizimidir.

Tarbiya vazifasi – ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutilgan holda o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyaning qanday metodidan foydalanishga bog‘liq.

Tarbiya jarayoni – tarbiya jarayonining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko‘nikmaga aylantirib borish lozim.

Tarbiya maqsadi – talaba-yoshlarda milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo‘llaniladi.

Tarbiyaviy jarayon – rivojlanib borayotgan avlodning katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni bo‘lib, insonlarning rivojlanishini boshqarish hamda ularning shaxsiy hislatilari shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi.

Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o‘zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g‘oyalar, dunyoqarashlar ta’sirida o‘zining shaxsiy sifatlarini, iymon-e’tiqodlarini shakllantirishni ko‘zlashdir.

Tarbiyaviy munosabatlar – insonlar o‘rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo‘lib, ular inson shaxsining rivojlantirishga, ya’ni, mustaqil ma’lumot, mustaqil ta’lim olish va o‘z – o‘zini tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu boshqaruv jarayonida rahbarlar bilan xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi.

Tarbiyaviy soatlar – bilim yurti sharoitida darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridandir. Tarbiyaviy ishlar ma’rifiy, yo‘naltiruvchi, baholovchi singari uch asosiy qismlarga bo‘linadi.

☑ Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbari qanday o‘rin tutadi?
2. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining burchi nimalardan iborat?
3. “Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining vazifalari” mavzusida mustaqil ish yozing.


📖 Mavzularni o‘rganishda foydalanish mumkin bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
2. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.
3. Ismoilova Z, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: Istiqlol, 2003
4. Hasanboyev J.; To‘raqulov X., Alqarov I., Usmanov N. Pedagogika. T.:Fan va texnologiya, 2010
5. Tarbiya ensiklopediya. Tuzuvchi M.N.Aminov. T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
6. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K.Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent, 2014 y.

MAVZU: SINIF RAHBARINING TARBIYAVIY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

REJA:

1. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda sinf rahbarining o'rnini.
2. Sinf rahbari ish faoliyatining maqsad va vazifasi.
3. Sinf rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ishlari.

 **Tayanch ibora va atamalar:** tarbiya, tarbiyachi, maktab, sinf rahbari, tarbiyaviy soat, o'quvchi, tarbiyaviy ish, jarayon, maktab, sinf, o'quvchi, burch, vazifa, tashkil qilish, bog'lash, hamkorlik, faollik, yondashuv, talab.

1. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda sinf rahbarining o'rnini

Sinf rahbarining o'quvchilarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sir kuchi ko'p jihatdan uning ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongi va xulq-atvorning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab hayotida, talim -tarbiya jarayonini boshqarishda sinf rahbarining o'ziga xos o'rnini bor. U maktabda juda muhim va mas'uliyatli vazifani bajaradi. Sinf rahbari faoliyatining aksariyat qismi tarbiyaviy jarayon bilan bog'liqdir.

Sinf rahbari deganda - o'quvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilim jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog (sinf rahbari) tushuniladi.

Sinf rahbarining asosiy maqsadi, o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va sinf rahbari bilan bir-birini tushuna olish va sinf rahbari tomonidan o'quvchilarga e'tiborliroq bo'lishdir. Boshlang'ich sinf maktab ta'limining dastlabki bosqichi bo'lib, unda bolalar o'qituvchi rahbarligida birinchi qadam qo'yadilar. O'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'qituvchi sinf bilan yolg'iz ishlaydi va ko'pincha tarbiyachi sifatida ish yuritadi.

O'qituvchilik faoliyati bolalarga munosabatda, katta mehribonligi bilan g'amho'rliqi bilan xarakterlanadi. Bular esa katta talabchanlik bilan olib boriladi. O'quvchilar bilan olib boriladiga o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda o'quvchilarning o'sishi va rivojlanishiga qarab ularni tarbiyalash sinf rahbari uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda

o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik talablar berishga erishadi, ota-onalar, kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilari jamoatchilik bilan doimo aloqa bog'lab turadi. Sinf jamosini tashkil etishda sinf rahbarining o'rni katta hisoblanadi. Sinf rahbari sinf jamoasini jipslashtirishda ota-onalar va jamoatchilik bilan ham korlikni yo'lga qo'yadi. Hamkorlik shakllaridan biri sinf ota-onalar majlisi o'tkazishdir. Sinf majlisi o'tkazish uchun, avvalo, jamoani jipslashtirish zarur. Sinf rahbari majlisda ko'plab bolalar tarbiyasiga oid masalalarni ko'radi. Sinf majlisida 3-4 ta masalalar ko'rilib, muammoli tomonlar tahlil qilinadi va o'z yechimini topishi kerak bo'ladi.

Sinf rahbari majlis o'tkazish davomida yaxshi o'qiydigan bolalarni sinfda, yangi jamoa ichida rag'batlantirishi kerak. Bunda bolalar bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishadi. Shuning uchun ular bir-biriga intilib, yaxshi o'qishga harakat qiladi. Yomon o'qiydigan bolalar yaxshi o'qiydigan bolalarga intilib ular ham yaxshi o'qishga kirishadi. Bundan tashqari sinf rahbari o'quvchilarning bilim darajasini oshirish uchun o'z sinfida kutubxona tashkil qilishi mumkin. Bu kutubxonadagi kitoblarni o'quvchilar sinfdan tashqari o'qish vaqtida yoki darsdan so'ng bo'sh qolgan paytlarida, o'qib o'zlariga foydali tomonlarini olishi mumkin.

Sinf rahbari har doim o'quvchilardan xabardor bo'lib turishi kerak. Masalan, bir o'quvchining o'zlashtirishi yomon bo'lsa, uni yaxshilash uchun o'qituvchi birinchi o'rinda ota-onasi bilan uchrashib, surishtirishi lozim. Nimaga yaxshi o'qimaydi, nima uchun darslarni o'z vaqtida qilmaydi, shular haqida ota-onasi bilan suhbat olib borishi kerak. Agar bolaning oilasida hamma sharoit bo'lib bola o'zi yaxshi o'qishni xohlasada, o'zi o'ylagan natijaga erisha olmayotgan bo'lsa, o'qituvchi bolani yaxshi o'qiydigan o'rtog'ining yoniga o'tkazib qo'yish kerak.

Bundan tashqari shunga o'xshagan o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yig'ib, har xil fanlardan masalan, matematika, ona tili, o'qish va boshqalardan qo'shimcha darslarni tashkil etib, bolalarni o'qishga bo'lgan talablarini, qiziqishini yanada oshirishga o'qituvchi harakat qilishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan faol ishlashi zarur. Negaki, maktabda sinfda bo'layotgan ishlardan ota-onalar ham xabar topib, qiynalgan vaqtida hamroh bo'lishi lozim. Buning uchun ota-onalar bilan

o'qituvchining o'rtasida bog'lab turuvchi aloqa daftarchasini tutishi va uni doim qoldirmasdan yuritib turishi darkor.

2. Sinf rahbari ish faoliyatining maqsad va vazifasi

Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg'iz emas, shu sinfdagi dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O'quvchilarning darsdan tashqari tadbirlarini tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'ligini mustahkamlashga ham e'tabor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning yuqori darajada o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlash tirishidan voqif bo'lib turadi. O'rqada qolayotganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay yordam uyishtiradi.

4. Sinfdagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, maktab miqyosida uyishtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Sinf o'quvchilarining ota-onalari, o'quv kuni uzaytirilgan guruhlarining tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfdagi dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatishga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o'z sinfidagi turli hujjatlarni: sinf jurnali, o'quvchining kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko‘rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog‘liqdir. Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g‘oyaviy ichonchiga va e‘tiqod darajadiga bog‘liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam o‘zlashtirib borishi bilan o‘zining bilimini oshiradi. Sinf rahbarining axloqiy obro‘si g‘oyat darajada yuqori bo‘lishi ham bu o‘rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma‘naviy qiyofasi o‘quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki, tarbiyachi qobiliyati juda ko‘p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko‘ngil qo‘yish, bolalarga bo‘lgan cheksiz muhabbat, muomala nazokatligi, oqil va adolatlilik namunasi, sipolik va vazminlik kabi fazilatlarning bo‘lishi taqozo qilinadi.

3. Sinf rahbarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlari

Sinf tarbiyaviy soatlari maktab sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridandir. Sinf tarbiyaviy soatlari quyidagi: ma‘rifiy, baholovchi, yo‘naltiruvchi singari uch asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi. Ma‘rifiy tarkibiy qismda: o‘quv dasturlaridan tashqari, o‘quvchilarning etik, estetik, ruhiy tushunchalarni, fantexnika, xalq xo‘jaligi, dunyo voqealarini boyitib, kengaytirib borishdan iborat ishlar amalga oshiriladi.

Baholovchi tarkibiy qismda: o‘quvchilarda atrof-muhitga muayyan munosabatda bo‘lish, undagi moddiy va ma‘naviy boyliklarimizning bahosi, ahamiyati va qadr-qimmatini, mehnat kishilari va Vatanimiz himoyachilarining shon-shuhrati, ona Vatanimizning, ulug‘ xalqimizning shuhrati haqidagi tegishli tushunchalarni hosil qilish va mustahkam qaror toptirishdan iborat sifatlar ro‘yobga chiqariladi.

Yo‘naltiruvchi tarkibiy qismda: o‘quvchilarning mavjud hayot haqidagi bilim va tushunchalari to‘g‘ri, maqsadga muvofiq yo‘naltirilib, teranlashtirilib, ularning hayotiy tajribasi, axloqi, bo‘lg‘usi turmush yo‘lini to‘g‘ri tanlashdek hayotiy faoliyatlari, unda tutgan mavqelari faollashtirilib, boshqarilib boriladi. O‘qituvchi-tarbiyachi tarbiyaviy soatning mavzuini belgilab, unga tegishli material to‘playotganda o‘quvchilarning yosh va

o‘ziga xos xususiyatlarini, sinfning rivojlanganlik va tarbiyalanganlik darajasini, mahalliy shart-sharoitni albatta e‘tiborga olishi kerak. Maktab sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri sinf tarbiyaviy soatlari bo‘lib uni tashkil etish pedagogning quyidagi yo‘nalishlar asosida olib boriladigan ishlaridan iborat:

- a) sinf tarbiyaviy soatlarning mazmunini aniqlash;
- b) tashkiliy jihozlash ishlari;
- v) sinf tarbiyaviy soatlari turkumini rejalashtirish.

O‘sib kelayotgan yosh avlodga maqsadga muvofiq ta‘sir ko‘rsatishda sinf tarbiyaviy soatlari ish mazmunini aniqlash va rejalashtirish mavzularni fasllarga qarab, bayram, tarixiy sana hamda voqealar, tinchlik, do‘stlik, mehnat, oila, baxt, kasb tanlash, tabiatni sevish, vatanparvarlik, ajdodlarimiz merosi, insoniylik, axloqiylik singari tarbiyaviy muammolar asosida tasniflash katta muvaffaqiyatning garovi ekanligini ko‘rsatmoqda.

“Inson va insoniy munosabatlar”. Bunda jamiyatimizdagi insoniy munosabatlar, jonajon maktabi, o‘qituvchilari o‘z ota-onasi qarindosh-urug‘i, do‘stlari va boshqa kishilarga, jamoat mulkiga, ona Vatan boyliklariga munosabat, yurish-turish madaniyati, muomalasi, rostg‘o‘ylik, halollik, mehnatga ongli munosabatda bo‘lish.

“Fan va turmush”. Bunda moddiy olam haqidagi haqiqatni, qarashlarni shakllantirish, fan texnika yangiliklari, bilim manbai bo‘lgan kitobga munosabat, uni o‘qish qoidasi, turmush, madaniyat, bugungi kun turmush tarzi kabi masalalarga e‘tibor berish.

“Go‘zallik olamida”. Bunda go‘zallikning mohiyati, go‘zallikni his qilish, nafosat va etika tushunchalari, hayotda insonning kiyinishda, turmushda, mehnatda, axloqda, muomala va nutq madaniyatida, kuy va qo‘shiqlarda, she‘riyatda, raqs va tasviriy san’atda, haykaltaroshlik va me‘morchilikda, zamonaviy ishlab chiqarish kabi sohalarda go‘zallik tushunchalariga e‘tibor berishi.

“Davlat mustaqilligi va inson huquqi haqida nimalarni bilasiz?” Bunda davlat mustaqilligi, uning ma‘nosi va mohiyati, mustaqil davlat siyosati va iqtisodiyotining mazmuni, tashqi dunyo mamlakatlari bilan do‘stona alo

qalar, elchixonalar vujudga keltirish, milliy mustaqillik imkoniyatlari, vatandoshlar bilan ishbilarmonlik doirasida aloqalar oʻrnatish, dunyo siyosiy voqealariga, huquq darajalari, oʻz haq-huquqi uchun kurash, ona Vatanimizga, xalqimizga mehr-muhabbat, sadoqat, eʼtiqod, dunyoviy gʻalabalarimizga munosabat kabilarga eʼtibor berish.

“Sogʻ tanda – so gʻlom aql”. Bunda oʻquvchining kundalik faoliyat tartibi, uyida oʻquvchining oʻz burchagi boʻlishi, yosh va oʻziga xos xususiyatlariga qarab gigiyenik qoidalarga rioya qilish, jinsiy tarbiya, gigiyena - inson goʻzalligi, madaniyati va salomatligi garovi ekanligi kabilarga eʼtibor berish.

“Ekologik tarbiya”da bolalarda tabiatning yer osti va yer usti boyliklariga, tabiatga nisbatan javobgarlik, Ularni hozirgi va kelajak avlod uchun a vaylab asrash, koʻpaytirish hamda muhofaza qilish his-tuygʻularini, tushunchalarini tarkib toptirish kabilarga eʼtibor berish lozim.

Sinf tarbiyaviy soatlarini tashkil qilish unga oʻquvchilarni ruhan tayyorlikdan boshlanadi, ular sinf tarbiyaviy soatlarini intizorlik bilan kutishlariga harakat qilish lozim. Koʻriladigan masalalar nechogʻli muhokama va munozarabop boʻlishi hamda u koʻngildagidek oʻtkazilishi darkor. Avvalo muhokama qilinadigan mavzu, uning mazmuni, uni oʻtkazish vaqti, tartibi va ushbu mavzuga oid materiallarni topish lozim.

Tarbiyaviy soatlar uchun maktab oʻquvchilari va oʻqituvchi tarbiyachilarga moʻljallangan hamda ommabop gazeta va jurnallar, pedagogikaga oid va bolalar tarbiyasiga doir badiiy adabiyot namunalari, kinolavha, kinofilm, diafilm va radio eshittirish va telekoʻrsatuvlardan, tarbiya mavzusiga yoʻnaltirilgan va shu kungi oʻquvchilar uchun dolzarb, hayotiy materiallardan tanlab olishlari kerak. Shundagina sinf oʻquvchilarining qaynoq ijodiy faoliyati taʼminlangan boʻladi. Bunday vaqtlarda oʻquv-texnika vositalari, koʻrgazmali qurollar va didaktik materiallardan unumli foydalanish esa soʻzsiz sinf tarbiyaviy soatlarini yanada ijobiy natijalarga olib keladi. Sinf tarbiyaviy soati tarbiyaviy ishning ajralmas qismi boʻlib oʻquvchilar uchun ham, sinf rahbari uchun ham amaliy-ijodiy ishdir. Sinf tarbiyaviy soatlarida tanlangan mavzu boʻyicha oʻtkaziladigan mashgʻulotlarga eng avvalo oʻqituvchi puxta tayyorgarlik koʻrishi lo

zim. Mashg'ulot jarayonida ustoz o'z maqsadini o'quvchilari ongiga yetkazoladigan, ularning qalbini to'lqinlantiradigan, ta'sirchan va ifodali bayon qilaoladigan nutqqa ega bo'lishi, turli pedagogik ta'sirlar orqali singdiradigan bo'lishi lozim. Sinf tarbiyaviy soatlari uchun tanlangan mavzuning maqsadiga mos keladigan kuy va qo'shiqning yangrashi, badiiy o'qish, she'rxonlik, o'z ijodiy ishlaridan namunalar ko'rsatish, muhokama qilinnayotgan masalaga nisbatan o'quvchilarning o'z mustaqil fikrlarini bayon qilishlariga keng yo'l berish, hayotiy muhim masalalar haqida aniq va to'g'ri xulosalar chiqarishlariga yo'naltirib borish lozim.

Bu esa o'quvchilarni o'z fikrlarini mustaqil va erkin bayon qilishga odatlantirib, ularda faollikni kuchaytiradi.

Sinf tarbiyaviy soatlari uchun namunaviy mavzular ro'yxati.

1-sinf

Mustaqil Vatan.

Jonajon maktabim.

Yaxshi bola.

Oilamiz o'zi bir dunyo.

Chin so'zim.

Mening do'stlarim kimlar.

Mehnat - mehnatning tagi rohat.

Men kim bo'lsam ekan?

Bir burda non qadri.

Oq paxta oppoq paxta.

Biz tabiatni sevamiz.

Fasllar nima deydi?

Meniki va bizniki.

Maktab mulki - mening mulkim.

Quyosh, havo - tanga davo.

Sog' yuray desang, ozoda bo'l.

Inson nima uchun o'qiydi.

Bobolar merosi bebaho boylik.

Ona ulug' zot.

Otam bilan faxrlanaman.

Oilada yoshi kattalarga qanday muomalada bo'lish kerak.

Kattaga hurmatda kichikka izzatda bo‘l.

Boshingga qilich kelsa-da, rost so‘zla. Uvol degani nima?

2-sinf

Bizning oila.

Ota-ona bolaning baxt chirog‘i.

Inson odobi bilan.

Biz kimlardan o‘rnak olamiz.

Rostgo‘y bola.

O‘zbekiston Respublikasining gerbi, madhiyasi va bayrog‘i.

Xalol va harom .

Odobli bola elga manzur.

Bolalar huquqlari.

O‘quvchining burch va vazifalari.

A.Temur o‘gitlaridan namunalar.

Qushlarni avaylab asrash burchimiz.

A.Navoiy Vatan va vatanparvarlik haqida!

Dasturxon atrofida o‘zingizni qanday tutasiz.

Vatanparvarlik - muqaddas burch.

Salomlashish odobi.

Non - bebaho boylik.

Jonajon maktabim - mening.

Egri va to‘g‘ri.

Onajonim siz mening.

Qanday o‘quvchini yaxshi bola deyishadi?

Qomusimiz - baxtimiz.

Kimlar bilan do‘st bo‘lish mumkin?

Mehr-muruvvatli bo‘laylik.

Ichimlik suvini tejash - burchimiz.

3-sinf

O‘zbekiston mustaqil Vatan.

Olim bo‘lsang olam seniki.

Sening kundalik faoliyating.

Kitob-oftob.

„Alifbeni o‘rgatgan, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatgan ...”

Koʻhna obidalar - tarix guvohi.
Assalomu alaykum!
Ovqatlanish odobi.
Farzandlik burchi
Oʻzbek tilim - oʻz ona tilim .
Shifokorga mehrim.
Bugungi niyat - ertangi haqiqat.
Dasturxon ustida suhbat.
Inson oʻz bilimi bilan samoga yoʻl oladi.
Savob nima?
Doʻstlik va oʻrtoqlik.
Kasal koʻrish va yoshi katta kishilarni ziyorat qilish odobi.
Pardoz - andoz oʻquvchiga xosmi?
Bobur - dilbar shaxs.
Besh bahoning sirlari.
Donolar bisotidan: odobnoma durdonalari.
Oilada tejamkorlik.
Hunarli odam xor boʻlmas.
4-sinf
Buyuk va muqaddassan mustaqil Vatan.
Forobiy bobomiz deydilar.
Sogʻ tanda - sogʻlom aql
Jamoat joylardagi odob mezonlari.
Vatan muhabbati
Qayerda qanday salom lashish kerak.
Ilm olish va hunar oʻrganish haqida.
Tabiatni asrab-avaylash - burchimiz.
Non - aziz neʼmat.
Ona yurtim - oltin beshik.
Oʻz irodangizni tarbiyalay olasizmi.
Ota - oila tayanchi, ona - oila quvonchi.
Xushmuomala va muloyim soʻzli boʻlish - eng yaxshi fazilat.
Oʻzingiz yashab turgan mahalla tarixini bilasizmi?
Soʻzlashish va nutq madaniyati.

Birni kessang, o‘nni ek.

Sinf va maktab shuhrati uchun kurash har birimizning burchimiz.

Donolar deydilar.

Hayotning asosi - mehnat.

Go‘zallik olamida.

Yaxshi tarbiya - inson ziynati.

Namunali oila.

Ilm kaliti - kitob.

Esda saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan tushunchalar:

Sinf rahbari - o‘quvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilmi jihatidan ham teng bo‘lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog (sinf rahbari) tushuniladi.

Sinf tarbiyaviy soatlari maktab sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridandir. Sinf tarbiyaviy soatlari quyidagi: ma’rifiy, baholovchi, yo‘naltiruvchi singari uch asosiy tarkibiy qism lardan iborat bo‘ladi.

Tarbiya vazifasi – ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutilgan holda o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyaning qanday metodidan foydalanishga bog‘liq.

Tarbiya jarayoni – tarbiya jarayonining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko‘nikmaga aylantirib borish lozim.

Tarbiya maqsadi – talaba-yoshlarda milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo‘llaniladi.

Tarbiyaviy jarayon – rivojlanib borayotgan avlodning katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni bo‘lib, insonlarning rivojlanishini boshqarish hamda ularning shaxsiy hislatilari shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi.

Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o‘zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g‘oyalar, dunyoqarashlar ta’sirida o‘zining shaxsiy sifatlarini, iymon-e’tiqodlarini shakllantirishni ko‘zlashdir.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbari qanday o‘rin tutadi?
2. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining burchi nimalardan iborat?
3. Sinf rahbari ish faoliyatining maqsad va vazifasi nimalardan iborat?
4. Sinf rahbari ish faoliyatiga qanday pedagogik talablar qo‘yiladi?

Mavzularni o‘rganishda foydalanish mumkin bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 174 b.
3. Jo‘rayev R.X. Jaholatga qarshi ma’rifat // J. Xalq ta’limi.– T.: 2004.- №3. – B. 9-13.
4. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.
5. Ismoilova Z., Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: Istiqlol, 2003
6. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Alqarov I., Usmanov N. Pedagogika. T.:Fan va texnologiya, 2010
7. Tarbiya ensiklopediya. Tuzuvchi M.N. Aminov. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
8. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent, 2014 y.

MAVZULAR YUZASIDAN TESTLAR

“Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni” mavzusi yuzasidan test

1. Tarbiya turlari.

- A) *Aqliy tarbiya, jismoniy, axloqiy, mehnat, nafosat, ekologik, etik, iqtisodiy, huquqiy;
- B) Matematik tarbiya, ijtimoiy tarbiya, jamoatchilik tarbiyasi;
- C) Oila tarbiyasi, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya;
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

2. Shaxsning barkamolligini ta'minlovchi manbalarni toping.

- A) *Xalqimizning ma'naviyat, axloq-odob va ma'rifat bilan bog'liq qadriyatlari;
- B) Xalqimizning huquqiy va ma'naviy qadriyatlari;
- C) Xalqimizning ijtimoiy, huquqiy, diniy qadriyatlari;
- D) Xalqimizning ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlari;

3. Tarbiyaning asosiy maqsadi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A) Bolani tarbiyalash;
- B) O'quvchilarni ma'naviyatli qilish;
- C) * Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish;
- D) Bolani to'g'ri yo'lga boshlash.

4. Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlari to'liq ko'rsatilgan qatorni toping.

A) maqsadga yo'naltirilganligi; ko'p qirrali jarayon; uzoq muddat davom etishi; uzluksizligi; yaxlitligi; variativligi.

B) * maqsadga yo'naltirilganligi; ko'p qirrali jarayon; uzoq muddat davom etishi; uzluksizligi; yaxlitligi; variativligi; natijalarning oldindan aniqlanmasligi; ikki tomonlamalilik.

C) maqsadga yo'naltirilganligi; uzoq muddat davom etishi; uzluksizligi; yaxlitligi; natijalarning oldindan aniqlanmasligi; ikki tomonlamalilik;

D) maqsadga yo'naltirilganligi; ko'p qirrali jarayon; uzluksizligi; yaxlitligi; variativligi; natijalarning oldindan aniqlanmasligi; ikki tomonlamalilik;

5. Quyidagi tushunchalarga mos ta'riflarni birlashtiring

1	Iqtisodiy tarbiya	A	atrof-muhit holati uchun shaxsning axloqiy mas'uliyatini tarbiyalash
2	Ekologik tarbiya	B	ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan
3	Mehnat tarbiyasi	C	shaxsda bozor iqtisodiyoti sharoitlariga hamda maqsadga muvofiq iqtisodiy faoliyatni amalga oshira olish qobiliyatini shakllantirish
4	Aqliy tarbiya	D	o'quvchilarni mehnat jarayonlari, vositalari, predmetlari haqidagi bilimlar, ishlab chiqarish mehnatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan umummehnat va maxsus ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.

1-C, 2-A, 3-D, 4- B

6. Tarbiyaga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.

- A) Shaxsning rivojlanishi;
- B) Bolaga odob-axloq o'rgatish;
- C)* Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon;
- D) Bolani oilada tarbiyalash.

7. Jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos etarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash; ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish – bular ...

- A) Tarbiyaning muhim belgilari
- B) Tarbiya qonuniyatlari

- C) Tarbiya tamoyillari
- D) * Tarbiyaning umumiy vazifalari

8. Tarbiya qonuniyatlari nima?

A)* bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar.

- B) Tarbiyaning qonun qoidalari.
- C) shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar.
- D) bu tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

9. Tarbiya tamoyillari nima?

A) bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar.

- B) Tarbiyaning qonun qoidalari.
- C) shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar.
- D)* bu tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

10. Maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi; tarbiyaning insonparvarlashuvi; tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog‘liqligi; tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv; jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko‘rish; shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo‘shib olib borish; o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta’sirlarining birligi; tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish; tarbiya jarayonining tizimligi va uzluksizligi – bular ...

- A) Tarbiyaning muhim belgilari
- B) Tarbiya qonuniyatlari

- C)* Tarbiya tamoyillari
- D) Tarbiyaning umumiy vazifalari

“Jamoa tarbiya ob’ekti va sub’ekti sifatida” mavzusi yuzasidan test

1. Jamoa nima?

A) lotincha «kollektivus» so‘zining tarjimai bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh

B) bir necha a‘zo (kishi)lardan tashkil topgan guruh

C)* lotincha «kollektivus» so‘zining tarjimai bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh, bir necha a‘zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir.

D) O‘quvchilardan tashkil topgan sinf.

2. Buyuk faylasuf olim Abu Nasr Forobiy o‘zining qaysi asarida jamoa bo‘lib yashashga tabiiy moyillik inson turmush tarzining mazmunini tashkil etishini uqtiradi.

A)* Fozil odamlar shahri

B) Aql to‘g‘risida risola

C) Falsafadan oldin nimani o‘rganish kerak

D) Musiqa haqida risola

3. O‘quvchilar жамоаси

A) bir necha kishilarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi

B) o‘quv yurti jamoasi

C)* yuqori darajada uyushtirilgan guruh

D) sinf hisoblanadi

4. O‘quv yurti jamoasi qanday jamoa hisoblanadi?

A)* bir necha kishilarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi

B) o‘quv yurti jamoasi

C) yuqori darajada uyushtirilgan guruh

D) sinf hisoblanadi

5. Tarbiyachi pozitsiyasiga nimalar kiradi?

A) Buyruqli, hamkorlik, beparvolik;

V) Tashkilotchi, buyruqli;

S) Muomala, ijodkorlik;

D) *Jamoaning shaxsga ta'sirini ta'minlay bilish;

6. Jamoaviy ijodiy ishni tayyorlash metodikasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) O'tkaziladigan tadbirni reja asosida tayyorlash va o'tkazish;

V)* O'quvchi-talabalar bilan birgalikda tanlab olish rejasini hamkorlikda tuzish, reja asosida kichik ijodiy guruhlariga bo'linish va topshiriqlar olish, tadbirni tayyorlash, tadbirni o'tkazish, o'tkazilgan tadbirni tahlil qilish, yakun yasash;

S) Tadbirni qiziqarli va ta'sirchan etib tayyorlash, hamkorlik pedagogikasi prinsiplari asosida tayyorlash va o'tkazish, tahlil qilish;

D) Tadbirni reja asosida belgilangan vaqtda o'tkazish, o'quvchi-talabalarga topshirilar berish, tomoshabinlar fikri bilan qiziqish, hamkorlikda ta'lim olish, loyihalash metodi, differensial va individual yondashuvlarni amalga oshirish.

7. Jamoaga xos bo'lgan tarbiya tamoyilini belgilang.

A) tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;

B) shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo'shib olib borish;

C)* Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash

D) o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta'sirlarining birligi;

8. Jamoaning o'ziga xos belgilari ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A)* Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi; umumiy birgalikdagi faoliyat; majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi; saylangan umumiy rahbariy organga egalik; jamoa ichki muhitida aks etuvchi o'ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a'zolari orasidagi munosabatlar.

B) Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi; umumiy birgalikdagi faoliyat; jamoa ichki muhitida aks etuvchi o'ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a'zolari orasidagi munosabatlar.

C) yagona maqsadning mavjudligi; umumiy birgalikdagi faoliyat; saylangan umumiy rahbariy organga egalik; jamoa a'zolari orasidagi munosabatlar.

D) jamoa ichki muhitida aks etuvchi o'ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a'zolari orasidagi munosabatlar.

9. O'quvchilar jamoasi nima?

A) Teng yosh va deyarli bir xil dunyoqarashga ega o'quvchilar guruhi

B) Sinf jamoasi

C) ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, barcha a'zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhidir

D)* ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhidir.

10. Jamoaning shakllanishi necha bosqichda amalga oshadi?

A) 5

B)* 4

C) 3

D) 6

“Tarbiyaning umumiy metodlari” mavzusi yuzasidan test

1. Quyidagi tarbiya usullarini ko'rsating.

A) So'z orqali ifoda usuli.

B) Amaliy usul.

S) Ko'rgazmalilik usuli.

*D) A va B

2. Metod nima?

A) Usul

*B) Maqsadga erishish yo'li

S) Qonun-qoida

D) To'g'ri so'z

3. Tarbiya metodlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) *Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, odatlantiruvchi va mashqlantiruvchi, rag'batlantiruvchi va jazolovchi;

V) Hikoya, ma'ruza, suhbat;

S) Pedagogik talab, mashqlantirish, rag'batlantiruvchi;

D) Barcha javoblar to'g'ri.

4. Shaxsga ta'sir etish orqali tarbiyalash metodlari va usullariga quyidagilar kiradi?

A) O'z - o'zini boshqarish, o'quvchi shaxsini tushunish, muomalada o'zini ko'rsata olish, o'z nutqini to'g'ri talaffuz qilish va boshqalar;

B) O'z ustida ishlash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini takomillashtirish;

C) Ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikdagi ijodkorlik;

D) *O'z-o'ziga ko'rsatma berish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'ziga hisobot berish, o'z-o'zini ishontirish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini majbur etish;

5. Tarbiya metodlarini maqsadli tanlash omillari. Quyidagi holatlarni ularga tegishliligiga ko'ra tanlang:

1) tarbiyaning mazmuni; 2) maqto'v so'zlarini bayon qilish; 3) tanbeh berish; 4) tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari; 5) rahmatnoma bildirish; 6) uyaltirish; 7) tarbiyachining ish tajribasi, pedagogik mahorati va tarbiya jarayoniga mas'uliyatli yondashuvi; 8) mukofotlash; 9) ogohlantirish.

A) 2,3,5

B)* 1,4,7

C) 2,6,9,

D) 1,7,8,5

6. *Tarbiya metodi* nima?

A)* tarbiya maqsadiga erishishning yo'li.

B) tarbiyalash usullari

C) maqsadga erishish yo'li

D) usullar yig'indisi

7. Tarbiya usullari nima?

A) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li

B)* umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi.

C) tarbiyalash usullari

D) maqsadga tezroq erishish yo'li

8. Xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiyaning umumiy metodlari qaysilar?

A) Kattalar namunasi, jazolash va rag'batlantirish

B) Tanbeh, nasihat, suhbat, jazo

C) Tushuntirish, o'rnak ko'rsatish, tanbeh berish, jazolash

D)* Tushuntirish, namuna, nasihat, qoralash va jazo

9. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar ...

A)* O'quchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish.

B) Bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq atvor qoidalarini bajarishga oatlantirish.

C) Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish metodlari

D) Suhbat va hikoya metodlari

10. Mashq va o'rgatish metodlari ...

A) O'quchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish.

B)* Bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq atvor qoidalarini bajarishga oatlantirish.

C) Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish metodlari

D) Suhbat va hikoya metodlari

“Ma’naviy-axloqiy tarbiya” mavzusi yuzasidan test

1. «Axloq»ning ta’rifi.

A. Axloq - kishining xulqi, odobi.

V. Axloq - ijtimoiy ong shakli.

S. Axloq - tarbiyaning yo’nalishlaridan biri.

*D. Axloq - kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo’lgan munosabatlarida namoyon bo’ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui.

2. Kasb axloqining ta’rifi.

A. Tibbiyot axloqi, o’qituvchi axloqi.

V. Biror kasb egasining axloqi.

*S. Faoliyatning ma’lum bir sohasi bilan shug’ullanuvchi kishilarga xos axloqiy normalar, talablar yig’indisi.

D. Biror kasb egasining axloqiy, ma’naviy, estetik sifatlari majmui.

3. Umuminsoniy axloq tushunchasining ta’rifi.

A. Vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, qahramonlik.

V. Hamma kishilarga xos insoniy ruhiy xususiyat.

S. Hamma millatga xos sifatlar.

*D. Hamma millatlarga, insonlarga xos umumiy axloqiy tushunchalar majmui.

4. Odob so’zi nimani anglatadi?

*A. Rasm-taomil, xulq-odatlar majmuini, muomala xususiyatini, amaliy xatti-harakatlarni.

V. Boshqalarni hurmat qilishni.

S. Yaxshi muomalada bo’lishni.

D. Halol, pok, insofli bo’lishni.

5. O’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan nazariy ma’naviy-axloqiy bilimlar negizida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko’nikma va malakalarni hosil qilish, ijobiy mazmundagi ma’naviy-axloqiy sifatlarni qaror toptirish va ma’naviy madaniyatni shakllantirishga yo’naltirilgan murakkab dinamik jarayon – bu ...

A) O’quvchining rivojlanishi

B)* Ma’naviy-axloqiy tarbiya

- C) Iqtisodiy-siyosiy tarbiya
- D) Tarbiya jarayoni

6. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishdagi pedagogik vazifalar tartibini to'g'ri belgilang

1. O'quvchilarga ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumot beriladi.
2. O'quvchilarda ma'naviy axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma'naviy-axloqiy ongini qaror toptirish.
3. O'quvchilarda ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlar (bilimlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehr-muhabbat, vatanga, halqqa muhabbat, ota-ona va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat, burchga sadoqat va hakozolarni) qaror toptirish.
4. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy mazmundagi hulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.
5. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish.

7. Axloqiy tarbiyani amalga oshirish metodlari ko'rsatilgan qatorni belgilang.

A) Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar, hikoya, tushuntirish, uchrashuvlar, test, yozma ish metodlari

B) amaliy, ko'rgazmali metodlar

C) tarbiyaviy tadbirlar uyushtirish, intervyu, eksperiment

D)* Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar, hikoya, tushuntirish, namuna ko'rsatish, uchrashuvlar, tarbiyaviy tadbirlar uyushtirish

8. Quyidagi tushunchalarga mos ta'riflarni birlashtiring

1	Odob	A	har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish turishida o'zini tuga bilishidir
2	Xulq	B	odobning ichki tuyiq ko'nikmaga aylangan ko'rinishi
3	Axloq	C	jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui

4	Madaniyat	D	jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida foydalangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi
5	Ma'naviyat	E	inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi
6	Fazilat	F	alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy-axloqiy sifatlar majmui

9. Yosh avlodni muntazam suratda jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga rioya qilishga o'rgatib borish; bolalarning xulqida ijobiy axloqiy odatlarni shakllantirish, uni axloqiy tajribalar asosida tarbiyalash; o'quvchilarni axloq tamoyillarini egallab olish va ularga amal qilishga o'rgatish, mustaqil yurtimizning har tomonlama kamol topgan quruvchilarini voyaga yetkazish – bular ...

- A) axloqiy tarbiya tamoyillari
- B) axloqiy tarbiya qonuniyatlari
- C)* maktabning axloqiy tarbiya sohasidagi asosiy vazifalari
- D) axloqiy tarbiya ko'rinishlari

10. «O'qituvchi odobi»ning ta'rifi.

- A. Muallimning axloqiy sifatleri majmui.
- V. O'qituvchi va o'quvchilarga qo'yiladigan axloqiy talablar yig'indisi.
- S. Pedagogning professional-axloqiy fazilatlari majmui.
- *D. Muallimning o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, maktab rahbarlari bilan muomala-munosabatlarida ifodalangan kasbiy-axloqiy xususiyat.

11. O'qituvchi odobining nazariy asoslari.

- A. Umumiinsoniy va milliy axloq.
- V. Xalqning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari.
- S. Ilmiy, islomiy g'oyalar.
- *D. Hamma javoblar to'g'ri.

12. «O'qituvchi odobnomasi» (pedagogik etika)ning predmeti.

*A. Axloqiy tarbiya jarayoni, pedagoglik odobining mazmuni, shakl va usullari.

V. Pedagogik etikaning qonuniyatlari, normalari, prinsiplari.

S. O'qituvchilik faoliyatining axloqiy jihatlari.

D. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar.

13. Milliy axloq tushunchasi nimani anglatadi?

A. Shu millatga xos ruhiy xususiyatni.

V. O'zbeklarga xos axloqiy, insoniy belgilarni.

S. Sharm-hayo, mehmondo'stlik, iffatni.

*D. Umuminsoniy axloqqa xos xususiyatlarni saqlagan holda aynan shu millat kishilariga xos bo'lgan axloqiy sifatlar, fazilatlar.

14. Eramizdan avvalgi 528 – 529 –yillar orasida yaratilgan odob – axloq g'oyalari ilgari surilgan asar nomini ko'rsating?

a) Temur tuzuklari;

b) qutadg'u bilig;

d)* Avesto;

ye) Devonu lug'atit turk.

15. Ma'naviy – axloqiy barkamol insonni shakllantirish oid g'oyalar, fikrlar aks etgan «Tadbiri al – manozil» asari muallifi kim?

a) Beruniy;

b)* Ibn Sino;

d) Muso al – Xorazmiy;

ye) Yusuf Xos Hojib.

“TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI” FANIDAN QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

**Mavzu: Tarbiyaviy ish metodikasi fanining maqsad va vazifalari.
“Assesment” metodi**



Test

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining o’rganish obyekti ko’rsatilgan qatorni



Qiyosiy tahlil

• Milliy ta’lim-tarbiya tizimi bilan xorijiy ta’lim-tarbiya tizimini qiyosiy tahlil qiling?

belgilang.

- A. sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayoni
- B. maktablardagi tarbiya jarayoni
- C. ta’lim muassalaridagi uzluksiz ta’lim –tarbiya jarayoni



Tushuncha tahlili

• Tarbiya tushunchasini izohlang...



Amaliy ko’nikma

• Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalaridan kelib chiqqan holda tarbiyaviy tadbirlar uchun zarur

bo’lgan metodlar namunasini ishlab chiqing?

Mavzu: Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.

«FSMU» metodi

Shaxs ma’naviy yuksalishida milliy qadriyatlarining o’rnini yoritish

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

F (fikringizni bayon eting)	Shaxs ma'naviy yuksalishida milliy qadriyatlarining o'rni juda muhim
S (fikringiz bayoniga sabab ko'rsating)	Chunki, milliy qadriyatlar mazmun-mohiyatini tushunib yetgan shaxsgina o'zida milliy tarbiyani namovon eta oladi
M (ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol keltiring)	Misol uchun Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda foydalanilsa, yoshlar ajdodlarimizga
U (fikringizni umumlashtiring)	Har qanday jamiyat ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish

“Konseptual jadval” GO

Ta’lim oluvchilarni o’rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo’yicha taqqoslashga o’rgatadi. Undan foydalanishda ta’lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg’ulotlar chog’ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:

- O’qituvchi yechimi topilishi lozim bo’lgan mavzu (masala)ni aniqlaydi
- Talabalar mavzu va GOdan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladi
- Talabalar kichik guruhlariga birlashtiriladi
- Guruhlar o’zlariga berilgan topshiriqni bajaradi
- Guruhlar yechimni sinf (guruh) jamoasi hukmiga havola etadi
- **Guruhlarning yechimlari sinf (guruh) jamoasida muhokama qilinadi**

Talabalar:

1. Konseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo’yicha xususiyatlarni ajratadilar

2. Alohida yoki kichik guruhlarda konseptual jadvalni to’ldiradilar:

- *uzunlik bo’yicha* taqqoslanadigan (fikir, nazariyalar) joylashtiriladi;

- *yotig’i bo’yicha* taqqoslanish bo’yicha olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi.

3. Ish natijalarining taqdimoti.

«Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati» mavzusidagi konseptual jadval (lavha)

Sharq mutafakkirlari	Pedagogik qarashlari			
	Jamoa haqida	Axloqiy tarbiya haqida	Oila tarbiyasi haqida	Aqliy tarbiya haqida
Abu Nasr Forobiy				
Abu Ali ibn Sino				
Abu Rayhon Beruniy				
Alisher Navoiy				

Mavzu: Tarbiya usullari va shakllari.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo’llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Namuna: Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlarning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring

S	Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlarning kuchli tomonlari	O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta'sir ko'rsatishi
W	Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlarning kuchsiz tomonlari	Suhbat va hikoya metodlarini qo'llashda ta'lim texnologiyalariga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi
O	Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlarning imkoniyatlari (ichki)	Tushuntirish o'quvchiga qo'yilgan talabni, voqealarni, harakatlarning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini yoritishi va o'quvchilarga duvoviy bilimlarni egallashda, ongli intizomni, yuksak madaniyatni milliy g'ururli qilib tarbiyalashda yordam berishi
T	To'siqlar (tashqi)	Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlarni qo'llanish jarayonida tashkiliy, uslubiy va huquqiy muammolarni paydo bo'lishi

Mavzu: Tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari.

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda innovasion texnologiyalardan foydalanish.

“Keys-stadi” texnologiyasi

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta'lim oluvchilarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U ta'lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

Metodni amalga oshirish tartibi:

trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;

trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

harbir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Tarbiyaviy tadbir tashkil etishga keys stadi qo'llash

Vaziyat	O'qituvchi 3-A sinf o'quvchilarini "Til – millat ko'zgusi" nomli tadbirga tayyorlayapti. Tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni ssenariy bilan tanishtirdi. Ssenariydagi rollarni o'quvchilarning iqtidori va qobiliyatiga qaram taqsimlab chiqish lozim. Muslima ismli o'quvchi Muhammad Yusufning "Ona tilim" she'rini juda yaxshi yod olgan, lekin u xarakter jihatdan o'ta tortinchoq va uyatchan. O'qituvchi Muslimani she'rni yaxshi od olgani uchun ssenariyga kiritib qo'ygan, lekin Muslima sahnada she'r aytolmasligini bildirdi.
Vazifa	Ushbu vaziyatda o'qituvchi qanday yo'l tutishi lozim?
Yechim	O'qituvchi Muslima bilan suhbat o'tkazib, namuna, tushuntirish metodlaridan foydalanib uning o'ziga bo'lgan ishonch hissini shakllantirishi kerak, uning iqtidori va qobiliyatini nomoyon qilishi uchun esa tortinchoqlikni yengib, maqsad sari intilishga o'rgatishi muhim.

Mavzu. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati.

O'zingizni tekshirib ko'ring ...

Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni	Qo'shimcha ma'lumot
Tarbiya jarayoni		
Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimi		
Sinf rahbari		
Sinf rahbari vazifalari		
Sinf rahbari ishini rejalashtirish		


Mavzu. Jamoa haqida umumiy tushuncha. Jamoani tashkil etish metodikasi

“VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)

Ta'lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo'lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:

Jamoani shakllantirish to'g'risida Sharq mutafakkirlarining qarashlari



Grafik organayzer ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Mavzu: Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari.

“Nilufar guli” GO



Texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo'lib, nilufar guli ko'rinishiga ega. Asos, unga birikkan to'qqizta "gulbarg" (kvadrat, to'rtburchak yoki aylanalar)larni o'z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

MAVZULARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN KROSSVORDLAR


Mavzu: Tarbiyaviy ish metodikasi fanining maqsad va vazifalari


Eniga:

1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida amalga oshiriladigan sayohatlar, olimpiada va to'garaklar ish usuliga kiradi
3. Tarqqiyot yo'li, nazariya, ta'limot demakdir
5. Suhbatdoshini hissiy idrok qilish, unga achinish qobiliyati.
6. Kishilarning xulq, fe'l – atvorlarini tartibga soluvchi axloqiy talablar mezoni
8. Pedagogik mahoratning shakllanish bosqichlaridan biri
9. Maktab muzeylari, kitoplar ko'rgazmasi ish usuliga taalluqli.
10. Davlat ta'lim standartlariTalablarini belgilaydi.
11. Shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadryatlar asosida rivojlanadi

Bo'yiga:

2. Iltimos , ishonch, ma'qullash talablarga kiradi.
4. Tarbiya jarayonida o'qituvchi tushkunlik kayfiyatini o'quvchilardan yashira oladi.
7. Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dod, ilm va mashqqa, degan edi.





Mavzu: Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati


Eniga:

2. O'qovchilarning ichki tuyiq ko'nikmaga aylangan ko'rinishi-
3. Jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui bu...
4. Jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida foydalangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi
6. - alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy-axloqiy sifatlar majmui.
7. O'qovchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'naviy-axloqiy bilimlar negizida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, axloqiy sifatlarni qaror toptirishga yo'naltirilgan murakkab dinamik jarayon – bu ... tarbiya.
10. – ta'lim-tarbiya haqidagi fan.
12. – ta'lim bilan tarbiya tushunchasiga birinchi bo'lib ta'rif bergan Sharq mutafakkiri.
13. Boshqa millat va elat vakillariga nisbatan hurmat va ehtiromni shakllantiruvchi tarbiya turi.
14. O'qovchilarga o'zi tug'ilib o'sgan zamanga mehr-muhabbat, davlatning tarixiy g'alabalaridan faxrlanishni o'rgatish.

Bo'yiga:

1. -har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish turishida o'zini tuga bilishidir.

5. - inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi
8. – o’sib kelayotgan yosh avlodlarda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot va dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va mas’uliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo’lgan axloqiy fazilatlarni yaratish jarayoni.
9. O’quvchilarni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoyi insonlar etib tarbiyalash bu ... tarbiyasi.
11. Mashhur ta’limiy-axloqiy asarlardan biri



Mavzu: Tarbiya usullari va shakllari


Eniga:

4. Tarbiya ...lari – biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq tarzda hal qilish uchun qo’llanadi.

5. insonning umrini oxirigacha davom etuvchi murakkab dinamik jarayon bu..
6. Ta'lim beruvchi
7. O'rnak bo'lish
9. O'rgatish, odatlantirish
11. Turli mavzularda olib boriladigan tarbiyaviy jarayon bu-
12. - ... uyasida ko'rganini qiladi
13. Tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish-

Bo'yiga:

1. Maqsadga erishish yo'li-
2. Tarbiya ...lari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi
3. Ta'lim oluvchi-
8. To'g'ri maslahat berish, o'git
10. Eng yaxshi tarbiya vositasi hamda usuli-
14. Bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq atvor qoidalarini bajarishga foatlantirish





Mavzu: Tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari


Eniga:


1. Shaxsda bozor iqtisodiyoti sharoitlariga hamda maqsadga muvofiq iqtisodiy faoliyatni amalga oshira olish qobiliyatini shakllantiradi
3. Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri...
4. Huquqiy ongni va yosh fuqaroning xulq-atvorini shakllantiradi.
6. O'quvchilarni mehnat jarayonlari, vositalari, predmetlari haqidagi bilimlar, ishlab chiqarish mehnatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan umummehnat va maxsus ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi
7. Tarbiyalanuvchilarda estetik ideallar, ehtiyoj va qiziqishni rivojlantiruvchi tarbiyaviy tizimlarning tayanch tarkibiy qismlaridan biri...
9. Ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobilyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan
10. O'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish jarayoni bu...
11. Tarbiyaviy ishning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalar – bu tarbiya...
12. Atrof-muhit holati uchun shaxsning axloqiy mas'uliyatini tarbiyalaydi, barcha faoliyat turlarida ular haqida domiy g'amxo'rlik zaruriyatini anglashga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar, qarashlar, e'tiqodlar tizimini shakllantiradi.
13. Ta'lim-tarbiya haqidagi fan bu...

15. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bu...
16.tarbiyaning maqsadi qanday shaxsni shakllantirish
17. Tarbiya dastlab qayerda boshlanadi?

Bo'yiga:

2. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'naviy-axloqiy bilimlar negizida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, axloqiy sifatlarni qaror toptirishga yo'naltirilgan murakkab dinamik jarayon – bu ...
5. Milliy mentalitetimizga xos bo'lgan turli insonlarni birlashtirib turuvchi tarbiya o'chog'i.
6. Ta'lim-tarbiya olib boriladigan maskan bu...
8. Salomatlikni, to'g'ri jismoniy rivojlanishni mustahkamlaydi.
14. Jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos etarlicha hajmdagi "inson"ni tayyorlash






Mavzu: Maktabdagi tarbiyaviy ishlarda sinf rahbarining faoliyati


Eniga:

1. "Xalq hokimiyati" demakdir.
4. Namuna qilib ko'rsatish metodlari guruhiga tegishli.
5. O'quvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilimi jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog.
6.va singdirish o'qituvchining o'quvchilarga kommunikativ ta'sir etish usuli.
7. Yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish.
9. Tovush hosil qilishda nafasdan foydalanadi.
10. axloqning asosiy mezonlaridan biri.
11. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi- bu pedagogik hujjatdir.

Bo'yiga:

2. o'qituvchining fikrlarini qabul qilishga halaqit beradigan his-tuyg'ular
3. Katta yoshli kishilarning hech qanday shubhasiz e'tirof etiladigan ta'siri va xislati.
8. – hukumatimizning farmon va qarorlari





Mavzu: Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligi

Eniga:

2. “Nasiyxat” asari muallifi

5.- iymon –e’tiqotni pok niyatga eltuvchi haqni nohaqdan ajratuvchi bir o’lchovdir.

6.....-yunoncha atama bo’lib, aynan nimagadir yo’lorqali maqsadga erishish yo’lini bildiradi.


7.- tarkibiy qismda: o’quv dasturlaridan tashqari, o’quvchilarning etik, estetik, ruhiy tushunchalarini, fan – texnika, xalq xo’jaligi, dunyo voqealarini boyitib, kengaytirib borishdan iborat ishlar amalga oshiriladi.

8.O’qituvchilar – sinf rahbarining tayanchi.

9.Aqliy mehnat turlaridan biri.

Bo'yiga:

1. Hamkorlik – Sinf rahbari sinf jamoasini jipslashtirishda ota –onalar va jamoatchilik bilan ni yo'lga qo'yish zarur.
2. Ishdagi muvaffaqiyatning asosidir
3. Sinf rahbarining asosiy, o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va sinf rahbari bilan bir –birini tushuna olish va o'quvchilarga e'tiborliroq bo'lishidir.
4. Ustozning eng buyuk – xalqqa nafi tegadigan aql idrokli, qobiliyatli o'quvchi shogirdlar tayyorlashdan iborat.
6.- bu insonning eng nozik sezgisi bo'lib, o'quvchining o'rtoqlari yoki jamoa orasida izza qilishi eng yuqori jazo hisoblanadi.



Mavzu: Jamoa haqida umumiy tushuncha. Jamoani tashkil etish

Eniga:


2. Jamoa haqida fikr yuritilgan dastlabki asarlardan biri “Fozil odamlar shahri” asarining muallifi...
3. Yuqori darajada uyushtirilgan jamoa bu...
4. Maktabdagi kichik jamoa bu...

5. Bilim olishga qiziquvchi, sinf, maktab obro'sini har doim saqlab qolishga harakat qiluvchi, o'qituvchining talablarini qo'llab quvvatlovchi jamoa a'zosi...
6. Jamoaning yuragi guruh ...i
8. Holatga moslashish...
9. – ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmui
10. Shaxsga ta'sir etuvchitashqi voqyea va hodisalar yig'indisi...
11. Ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalari bo'lgan fan...
16. O'quvchilar jamoasining birgalikdagi asosiy faoliyat turi...

Bo'yiga:

1. Bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh..
7. Harakatga undovchi kuch..
12. Milliy mentalitetimizga xos bo'lgan turli insonlarni birlashtirib turuvchi tarbiya o'chog'i bu...
13. Maxsus tayyorlangan kishilar tomonidan o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilish qobiliyatlarini o'stiradigan jarayon...
14. O'sib kelayotgan yosh avlodlarda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot va dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratish jarayoni.
15. O'quvchilar jamoasining birgalikdagi faoliyat turi bu ...

1	2	3
	4	5
		6
	7	




Mavzu: Sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalash

Eniga:

4. Maktab jamoasi ikki muhim bo'gin - va o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topgan.
6. jamoasi – bu ijtimoiy ahvoli, shuningdek, saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik , barcha a'zolarining huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir
7.- yig'ilma, omma , birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi.
8. Tarbiyaning- har tomonlama kamol topgan, mukammal inson shaxsini tarbiyalash.
9. Inson axloqining bebaho go'zalligi, ijobiy fazilatlar gavhari.
10. Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyati
11. Jamoa jamoa manfaatlariga muvofiq tarzda harakat qiladilar va pedagog faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar.

Bo'yiga:

1. Maktab jamoasining ajralmas bir kichik bo'lagidir.
2. ... deganda kishiga stixiyali ta'sir etadigan tashqi voqealar komplekti tushuniladi.
3.- jamoa bilan birdamlik , o'zini jamoaning bir bo'lagi deb his qilish.
5. Maktab jamoasi tarkibida eng bo'g'in – bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – Toshkent: O‘zbekiston. NMIU, 2017. 592 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent.: O‘zbekiston. NMIU, 2016, 56 bet
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalkimiz bilan birga quramiz. - Toshkent.: O‘zbekiston. 2017. - 488 bet
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. . - T.: O‘zbekiston. 2021. - 464 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-406-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami). – T.: 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami). – T.: 2022.
8. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2008. – 176 bet.
9. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, O‘zbekiston, 1992. –160 b.
10. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – To‘ldirilgan 2–nashri. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000. – 248 b.
11. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1997. – 63 b.
12. Karimov I.I. O‘qituvchi, ustoz, murabbiy...: Talabalar va yosh o‘qituvchilar uchun. Risola. – Qo‘qon DPI, 2009. – 99 b.

13. Kaykovus. Qobusnoma (Forschadan Muhammad- Rizo Ogahiy tarjiması): S.Dolimov. – T., O’qituvchi, 2006. – 208 b.
14. Mavlonova R.A., Normurodova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo’llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y.
15. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. Toshkent, 2014 y.
16. Mahmudov N. M. O’qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O’zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.
17. Pedagogika. (Pod red. P.I. Pidkasistogo).- M.: Pedagogicheskoye obshchestvo Rossii, 2003.- 608 s.
18. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.– 380 b.
19. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
20. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O’zMU qoshidagi OPI, 2003.
21. Sodiqova T. Murabbiy kim?... – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2006. – 83 b.
22. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o’quv qo’llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). – T.: “O’qituvchi”, 1991. – 376 b.
23. O’qituvchi ish faoliyatini baholash va uni rag’batlantirish mezoni (Metodik tavsiyanoma). – T.: 1993. – 34 b.
24. G’aybullayev N.R., va boshqalar. Pedagogika: Oliy o’quv yurtlari uchun qo’llanma. – T.: O’zMU, 2005. – 176 b.
25. Hasanboyev J., va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug’at. T.: “Fan va texnologiya”, 2009. – 672 b.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
Nazariy materiallar	5
Mavzular yuzasidan testlar	96
“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan qoʻllaniladigan taʼlim texnologiyalari	108
Mavzularni mustahkamlash uchun krossvordlar	117
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati	129

Farsaxonova Dilafuz Rizaxonovna

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI FANINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Musahhih: I.Xalilov

Texnik muharrir: Muhiddin Hakimov

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «Fan ziyosi» nashriyotiga
2021 yil 14 fevralda berilgan 308197041-sonli litsenziyasi
Nashriyot manzili: Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi, 30 uy.

Ofset qog'ozi. Bichimi 60x84, 1/16
Times New Roman garniturasida. Shartli bosma tabog'i – 8,5
Buyurtma № 51. Adadi 100 nusxada
«Munis design group» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100000 Toshkent sh., Buz-2 mavze, 17-A uy.